



JADIDLAR



G'ULOM

*Tajariy*

YOSHLAR ISHLARI  
AGENTLIGI



**Jadidlar**

**G'ULOM  
ZAFARIY**

**YOSHLAR NASHRIYOT UYI**  
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-3

KBK 83.3(50')

U 73

**Usmonov, Olim**

Jadidlar. G'ulom Zafariy [Matn]: risola./O.Usmonov. –  
Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.

*Loyiha rahbari:*  
**Alisher Sa'dullayev**

*Muallif:*  
**Olim Usmonov,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

*Mas'ul muharrir:*  
**Bahodir Karimov,**  
filologiya fanlari doktori, professor

*Ijodiy guruh:* **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

O'zbek jadid adabiyoti tarixini G'ulom Zafariy ijodisiz tasavvur etish qiyin. Zero, o'zbek adabiyotida musiqali drama janri va bolalar dramaturgiyasining vujudga kelishi bevosita uning nomi bilan bog'liq. Adib o'z asarlari bilan o'tgan asrning 20-30-yillari ma'naviy-ijtimoiy hayotida sezilarli iz qoldirdi. G'ulom Zafariy shoir, dramaturg, publitsist, aktyor, rejissor, bastakor, teatrshunos, musiqashunos, folklorchi olim ham bo'lgan. Mazkur risolada G'ulom Zafariy ijodining ayni jihatlariga e'tibor berildi.

Risola keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-6682-6-3

© O.Usmonov,

© Yoshlar nashriyot uyi, 2022



*Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablar, teatr, kutubxona va muzeylar, gazeta va jurnallar, Turkiston farzandlarini chet ellarga o'qishga yuborish maqsadida tuzilgan xayriya jamiyatlari xalqimizni necha asrlik g'aflat uyqusidan uyg'otdi, milliy ozodlik harakati uchun beqiyos kuch berdi.*

**Shavkat Mirziyoyev**  
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**



## ADIB HAYOTI

**G**'ulom Zafariy 1889-yilda Toshkentning Kattabog' mahallasida dunyoga keldi. Uning otasi Muzaffar misgar hunarmand kishi bo'lib, hazil-mutoyibaga moyil, san'atsevar kishi edi. Onasi Fayzinisa otin ma'lumotli, gapga chechan ayol bo'lib, ko'pgina xalq dostonlari va ertaklarini yoddan bilar, ayniqsa, asli qo'qonlik bo'lganligi uchun Qo'qon xonligi tarixiga oid ko'pdan-ko'p ma'lumotlarni o'z xotirasida saqlar edi. Bilimdon, shoirona ruhli muloyim va shirinso'z Fayzinisa otin bu ma'lumotlarni muntazam ravishda yosh G'ulomga hikoya qilib berar edi. Zehni o'tkir bola onasining bu hikoyalarini maroq bilan tinglar va o'z hofizasiga singdirib olardi. Uning qalbida Vatanga, xalqiga, uning boy tarixi va madaniyatiga muhabbat



tuyg'ulari ilk bora onasining hikoyalari orqali jo bo'lgan bo'lsa, ajab emas. **Ularning oilasi Abdulla Qodiriylar oilasi bilan bir mahallada** bo'lganligi uchun, tez-tez bordi-keldi qilib turishgan. Bu haqda Habibulla Qodiriy o'zining "Otam haqida" kitobida yoza-di: *"Dadamning yana bir hamkasb do'stlari G'ulom Zafariy edi. U yo'g'on, baland gavdali, cho'ziq, cho'tir yuzli, qish kezlarida uzun olacha qaviq to'n kiyib yuruvchi, xok-sor — ochiq tabiatli, muloyim kulib so'zlovchi, Qodiriydan besh-o'n yosh katta kishi edi. G'ulom Zafariy asli qo'qonlik, Toshkentga qachon ko'chib kelganligi menga noma'lum. Uning Eshonguzar mahallamizda bog'cha hovlisi bo'lib, bizga hammahalla, dadamga ham ulfat — gapxo'r edi. G'ulom Zafariyning onasi (biz uni "Qo'qonlik oyi" deb atar edik) esa Josiyat bibim bilan tengdosh, o'rtoq, bordi-keldilari quyuq edi. "Qo'qonlik oyi" ham juda muloyim, xushmuomala, shi-*



*rinsuhbat, Qo'qon hayotini, xonlar zamonini yaxshi bilguvchi, uni bizga hikoya qilib o'tirguvchi ayol edi"*<sup>1</sup>.

Oilada yolg'iz farzand bo'lgani uchun ota-onasi yosh G'ulomning tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratadi. Uni avval eski maktabga o'qishga berishadi, so'ngra u rus-tuzem maktabini bitirib, **Toshkentdagi Xo'ja Ahmad madrasasida tahsil ko'radi. 1912-yildan boshlab O'sh shahrida yangi usul maktablarida o'qituvchilik qiladi.**

U 1913-yilning oxirlarida O'shdan Toshkentga qaytib, Abdulla Avloniy tomonidan tashkil etilgan **"Turon" truppasiga a'zo bo'ldi.** Shu vaqtdan boshlab uning hayoti va ijodi teatr bilan, jadidchilik harakati bilan mangu bog'lanib qoldi.

1914-yildan boshlab "Oyina", "Sadoyi Farg'ona", "Al-Isloh" kabi nashrlarda she'r va maqolalarini e'lon qila boshlaydi.

<sup>1</sup> Qodiriy, Habibulla. Otam haqida. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. 180-bet.

Shoir 1918-yilgacha yozgan asarlarini **“toshkandlik mulla G‘ulom Zafariy”** imzosi bilan bostirar edi. Bu uning imonli, e‘tiqodli shaxs bo‘lib, o‘sha vaqtgacha nashr etilgan va etilayotgan diniy adabiyot bilan ham muntazam tanishib borganidan darak beradi.

1917-yilda chor hukumati yiqitilgach, jadidlar o‘z siyosiy maqsadlarini ochiq bayon qila boshladilar. Ayniqsa, Turkiston Muxtoriyatining e‘lon etilishi jadidlar qalbini quvonch va g‘ururga to‘ldirib yubordi, umidlarini qanotlantirdi.

**1917-1918-yillarda G‘ulom Zafariy “Ishchilar dunyosi” jurnalida bo‘lim mudiri bo‘lib ishlaydi va Muxtoriyat g‘oyalari faol targ‘ib etadi.** Muxtoriyat qonga botirilgandan so‘ng jurnal ham o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Adib 1919–1921-yillarda **“TurkROSTA”** gazetasining Eski shahar bo‘limida mudir, 1922-1923-yillarda Buxorodagi mu-





siqa texnikumida mudir muovini bo'lib ishlaydi. 1923-yilda xalq maorif komissarligiga qarashli O'zbek teatr bilim hay'atiga rais vazifasida ishlaydi va Turkiston o'lkasining turli hududlaridan folklor namunalari to'plash bilan shug'ullanadi.

1925-yilda O'zbekiston ijtimoiy sho'rolar jumhuriyati Bosh siyosiy ong-bilim tarqatuv idorasi va Sanoei nafisa nozirining talabi bilan Termizga borib, musiqa bilim yurtida mudir bo'lib ishlaydi.

G'ulom Zafariy Termizda 1927-yilgacha faoliyat ko'rsatdi. Shundan so'ng Toshkentga kelib, ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Qo'qon, Andijon shahar teatrlarida adabiy emakdosh va rejissor sifatida isholib bordi. 1929—1931-yillarda u Samarqandda ochilgan Musiqa institutida bo'lim mudiri, Kitoblar palatasida direktor lavozimlarida ishladi.

**1932-yilda G'ulom Zafariy "Talabalarni aksilinqilobiy ishlovdan o'tkazib,**



musiqa institutini begona unsurlar bilan to'ldirgan va ularga panturkizm g'oyalari singdirgan "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi" sifatida qamoqqa olinadi va Sibirga surgun qilinadi.

G'ulom Zafariy **Sibir** ayozlarini ham yengib, 1935-yilda o'z yurtiga qaytib keladi. Ammo uni oldinda Sibir sovug'idanda dahshatli ko'rgilik kutib turar edi. Butun umrini xalqining ozodligi, baxt-saodati uchun fido qilgan adibni **1937-yilda "xalq dushmani" deb e'lon qilishadi va u otuvga hukm etiladi.**

G'ulom Zafariy Fitrat atrofida uyushgan qaynoq adabiy muhitning eng faol a'zolaridan edi. Uning barcha asarlarida bu muhitning ta'siri sezilib turadi. O'z davrining yetuk ziyolilari bilan G'ulom Zafariy doimo do'stona aloqada, ijodiy hamkorlikda bo'ldi. Uni Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy va boshqa ulug' insonlar bilan birlashtirib

turgan g'oya, bu — maqsad va maslakning mushtarakligi, Turkiston o'lkasini ozod, elini baxtiyor holda ko'rishorzusi edi. G'ulom Zafariy shoir va yozuvchilar, san'atkorlar davrasida bo'lishni juda xush ko'rar edi. Uning qizi Siddiqa G'ulomiyaning xotirlashicha, ularning xonadoniga Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov, Muhiddin qori Yoqubov, Shorahim hofizlar tez-tez borib turishgan. Bu san'atkorlarning ko'pchiligi adibning sahna asarlarida ishtirok etishgan. *“Bir mahallada bo'lganimiz uchun, — deb yozadi Siddiqa G'ulomiya, — mehmonlar kelishganda, otamning topshirig'iga ko'ra, Abdulla Qodiriyni uyimizga tez-tez aytib kelar edim. Ular mehmonlar bilan birgalikda mehmonxonamizda uzoq o'tirishardi, suhbat, musiqa va qo'shiq avjiga chiqardi. Oilamizda boshqa farzand bo'lmagani uchun men ularga choy tashuvchi dastyor edim. Qodiriy (Julqunboy) amakim ko'p vaqt biznikida bo'lardi. Ular qadrdon do'st edi. Otam*

*kompozitor Uspenskiy bilan ham g'oyat inoq edilar"*<sup>2</sup>.

G'ulom Zafariyning Fitrat va Cho'lpon bilan do'stligi uning hayoti va ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu ikki ulug' siymo ham, o'z navbatida, G'ulom Zafariyni mohir dramaturg, o'zbek madaniyatining jonkuyari, maslakdosh inson sifatida juda hurmat qilishgan.

Kimki o'zbek adabiyoti va madaniyati uchun jon kuydirsa, G'ulom Zafariy uni do'st tutar, yosh ijodkorlardan beg'araz yordamini ayamasi edi. Sobir Abdulla o'zining "Tarjimai hol"ida yozadi: "...Hamza Hakimzoda tuzgan asosiy teatr tarqagan, aktyorlar boshqa teatrlarga yoki boshqa kasblarga o'tib ketgan bo'lib, shu teatr asosida Qo'qonda komsomol yoshlar katta teatri tuzilgan, bu teatrdan mashhur "Halima" pyesasining muallifi G'ulom Zafariy vaqtincha rejissor va

<sup>2</sup> Imomov B. G'ulom Zafariy — shoir va dramaturg. // Sharq yulduzi. 1981, 11-son, 212-bet.

adabiy emakdosh bo'lib ishlab, o'zi yozgan kichik formadagi muzikali sahna asarlarini sahnalashtirmoqda edi. Hamza mening asarimni do'sti G'ulom Zafariyga topshirdi va bunday deb ta'kidladi: "Sobir endi senga ham shogird bo'ladi. Yozgan asarini o'qib, o'z fikr-mulohazalarimni asar hoshiyasiga yozib qo'ydim. Anchagina mehnat talab qiladi: yordam ber, shu teatrni sahnalashtir. Yordamingni ayama". ...Mening bu to'ng'ich asarim shu yili ustoz Hamza, qolaversa, G'ulom Zafariyning tashabbusi bilan sahna yuzini ko'rdi"<sup>3</sup>.

**G'ulom Zafariy Elbek, Usmon Nosir singari yosh o'zbek shoirlari bilan ham do'stona ijodiy aloqada bo'lgan.** Ularning yetuk shoir bo'lib yetishishlariga umid qilgan.

G'ulom Zafariy ijodiga 20-yillar avvalidayoq zamondoshlari o'z munosabatlarini

<sup>3</sup> Sobir Abdulla. Tarjimai hol. // O'zbek tili va adabiyoti. 1970, 3-son. 70-bet.

bildira boshlaganlar. Ayniqsa, “Halima” musiqali dramasiga ko‘plab taqrizlar yozilgan. Adibning kichik sahna asarlari va “Halima” musiqali dramasini, asosan, ijobiy baholagan ayrim tanqidchilar siyosiy iqlimning keskinlashib borishi bilan “Halima” asari bizga kerakmi?” degan savolni ko‘ndalang qo‘yish va, hatto, bu asarni sinfiy yot bo‘lgan millatchining zararli dramasi deyish darajasiga borganlar. 1937-yilda G‘ulom Zafariy “xalq dushmani” deb e‘lon qilingandan so‘ng uning asarlari ham qatag‘on qilindi. To shaxsga sig‘inish oqibatlarini bartaraf etilmaguncha uning hayoti va ijodi haqida gapirish taqiqlandi. Faqat **Stalin o‘limidan so‘ng**, mamlakatda siyosiy iqlim biroz mo‘tadillashgandagina **G‘ulom Zafariyning “jinoiy ishi” qayta ko‘rib chiqildi va u oqlandi**. Shu davrdan boshlab 20-yillar adabiy jarayoni haqida yozilgan maqolalarda uning nomi ham tilga olinib boshladi. Zero, chetlab o‘tishning iloji ham yo‘q

edi, chunki o'zbek adabiyotining ikki muhim janri — **musiqali drama va bolalar dramaturgiyasining yaratilishi uning nomi bilan bog'liqdir.**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, adib ijodini o'rganish yangicha tus oldi. Shu davrdan boshlab uning ilgari qoralanib kelgan ba'zi asarlari qaytadan nashr etildi, adibning hayoti, adabiy-ijtimoiy faoliyati va dunyoqarashini xolis yorituvchi maqolalar paydo bo'la boshladi va, nihoyat, 2018-yilda taniqli olim Sirojiddin Ahmad tomonidan to'plangan G'ulom Zafariyning asarlari salmoqli so'zboshi bilan nashr etildi.

# FAOLIYATI VA IJODI







**G**'ulom Zafariy adabiy-ijtimoiy faoliyatini Turkistonda jadidchilik harakati keng tomir ota boshlagan shiddatli bir davrda boshladi. O'z davrining yetuk ziyolilari bilan yaqindan tanishligi Bog'chasaroyda

chiqadigan "Tarjumon", Ufada nashr etilgan "Vaqt" gazetalari, shuningdek, Turkistonda yangi paydo bo'la boshlagan mahalliy nashrlardagi ma'rifiy-inqilobiy ruhdagi asarlar bilan muntazam tanishib borishi, unda millat va Vatanga muhabbat, uning achchiq qismatiga qayg'urish, uning uchun kurashish tuyg'ularini uyg'otdi. Bu davrda, aniqrog'i, 1914-yilning

15-yanvarida Turkiston madaniy hayotida yorqin voqea sodir bo'ldi. Shu kuni Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi sahnaga qo'yildi: Turkistonda Ovro'po usulidagi yangi teatr dunyoga keldi va shiddat bilan rivojlana boshladi. Yangi o'zbek teatrini yaratish tilagi ko'plab jadidlarning ko'nglida avvaldan mavjud edi. Tatar, ozarbayjon xalqlarida bunday teatr anchadan beri bor bo'lib, ular Turkistonga ham gastrolga kelishar, o'zbek ziyolilarida teatrga qiziqishni oshirib, yangi usuldagi o'z teatrini yaratish ishtiyoqini qo'zg'ar edi. Bu haqda G'ulom Zafariy keyinroq shunday yozgan: *"1912-yildan boshlab yoshlar orasida teatr havaskorlari ko'rina boshlagan edi. Bu havaskorlar yurtimizdagi rus, tatar, ozarbayjonlik og'aynilarimizning Yevropa usulida o'ynagan teatrlaridan ibrat oldilar"*<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> O'zgarishchi yoshlar. 1924, 2-son, 12-bet.



“Turon” teatr truppasining faol a’zolaridan biri bo’lgan G’ulom Zafariy ham butun vujudi bilan teatr ishlariga sho’ng’ib ketadi: aktyor, rejissor, rejissor yordamchisi, butafor ustasi sifatida faoliyat ko’rsatadi, **Behbudiyning “Padarkush” asari ta’sirida o’zi ham 1914 yilda “Baxtsiz shogird” nomli ilk drama-sini yozadi.**

Avloniy boshchiligida tashkil etilgan truppa tatar va ozarbayjon teatri bilan yaqin hamkorlik qiladi. Truppa faoliyatining ilk davrida unga tatar va ozarbayjon teatri namoyandalari yordam berdilar. Truppa o’zining birinchi pardasini **“Padarkush” pyesasi** bilan ochdi. Pyesani ozarbayjonlik rejissor Aliasqar Asqarov sahnalashtirdi. Shundan keyin truppa ko’plab ma’rifiy ruhdagi asarlarni sahnaga olib chiqdi. Bular, asosan, Abdulla Avloniy, N. Qudratulla, Hamza, Abdulla Qodiriy hamda tatar, ozarbayjon va chet el dramaturglarining

asarlari bo'lib, **G'ulom Zafariy ularda turli rollarni ijro etib bordi.**

O'tgan asrning 10-yillarida ozarbayjon teatri Turkistonga bir necha marotaba gastrolga keldi. Tili, dini bir, urf-odati yaqin bo'lgan ozar xalqining qalbi va ruhi aks etgan bu asarlar o'zbek xalqi o'rtasida keng shuhrat qozondi. Ayniqsa, musiqali dramalar xalqning samimiy muhabbatiga sazovor bo'ldi. Tabiatan musiqaga moyil bo'lgan G'ulom Zafariyda ham bu asarlar bilan tanishish, ozarbayjon rejissorlari bilan hamkorlikda ishlash ishtiyoqi tug'ildi. Uning keyinroq yaratilgan ko'plab kichik musiqali sahna asarlari, mashhur "Halima" dramasining maydonga kelishida ozarbayjon teatri namoyish etgan spektakllarning ham ta'siri bor. Bu haqda muallifning o'zi shunday yozgan edi: *"1916-yil boshida Bokudan Sidqiy Ruhullo, Ahmadbek Qamarlinskiy ham Yunus Narimonov o'rtoqlar kelib yosh teatr ha-*

vaskorlarimizga o'ynamoq yo'llarini ko'rsatib ketdilar"<sup>2</sup>. Ozarbayjon teatrining Turkistonda namoyish etilgan "Layli va Majnun", "Er va xotin", "Asli va Karim", "Mashodi Ibod", "Arshin mol-olan" kabi spektakllarida eskilik va yangilik o'rtasidagi kurash, xalq taraqqiy-siga to'sqinlik qilayotgan jaholat, mutaassiblik, ijtimoiy tuzumning qoloqligi masalalari ko'tarilar hamda sevgi-muhabbatga asoslangan nikoh, xotin-qizlar erki uchun kurash g'oyalari ifodalanar edi. Aytish mumkinki, Turkistonda jadidchilik harakatining keng qanot yozishida ozarbayjon ma'rifatparvarlari, xususan, teatr namoyandalarining ham munosib o'rni bor.

**“Turon” teatr truppasida ishtirok etish G'ulom Zafariy uchun bir maktab bo'ldi.** U bu yerda faqat teatr sirlarinigina o'rganib qolmasdan, jadidchilik g'oyalari bilan ham chuqurroq tanishdi, uning yetakchi na-

<sup>2</sup> O'zgarishchi yoshlar. 1924, 2-son, 12-bet.

moyandalari bilan yaqin ijodiy aloqada bo'ldi. Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Hamza singari jadidlar, shuningdek, tatar, ozarbayjon ma'rifatparvarlari bilan yaqindan tanishgan, ijodiy hamkorlikda bo'lgan va yangi matbuotni muntazam kuzatib borgan G'ulom Zafariy chor hokimiyatining siyosatini yaxshi bilib oldi, uning musulmon xalqlarga, jumladan, Turkiston xalqiga nisbatan olib borgan siyosatining nozik tomonlarini anglab yetdi. Mustaqil o'qishlar, ijodiy musohabalar, hayotni sinchiklab kuzatish jarayonida uning siyosiy bilimi, dunyoqarashi o'sib bordi, o'z xalqining ijtimoiy qoloqligi, taraqqiyotdan ortda qolganligi sabablarini tushundi. Buning asosiy sababi millatning xastaligi, uning jaholat va xurofot iskanjasida qolib ketganligida deb bildi. Uni bu bo'g'ovdan qutqarishning yagona yo'li millat qalbida so'nib borayotgan vatanparvarlik, hurriyat va ma'rifat tuyg'ularini olovlantirmoq, o'zligini

anglatmoq lozim ekanligini tushundi. Buning uchun millatni taraqqiyot sari to'g'ri yetaklab bora oladigan ilg'or g'oyalar va bu g'oyalarni xalq orasida yoyadigan, amalga oshiradigan fidoyilar zarur edi. G'ulom Zafariy butun umrini mana shu olijanob g'oyaga, xalqini ozod va baxtiyor holda ko'rish uchun kurash yo'liga baxshida etdi. Uning 1914-yildan boshlab "Oyina", "Sadoyi Farg'ona", "Al-Isloh" kabi nashrlarda e'lon qilingan she'r va maqolalari bir zamonlar butun dunyoga ma'rifat nurini taratgan Turkiston elining so'nggi davrlarda mislsiz jaholat va xurofot botqog'iga botganligidan kuyunish, xalqni ilm-ma'rifatga da'vat etish ruhida bo'lib, asosan, ma'rifiy va tashviqiy xarakterga egadir. **"Ey ilm"** deb nomlangan she'rida shoir bevosita ilmga murojaat qilib, jaholat zulmatida qolgan Turkiston elini o'z nuri bilan munavvar etishini so'raydi:

*Ey ilm, bizdan seni kim begona qildi*

*bu on,*



*Sen eding hodiysi islom millati o'tgan  
zamon.*

*Qoldimiz g'aflat uyida, bosdi nodonlik  
tomi,*

*Emdi kelib qil xalos ushbu jaholat  
qo'lidan.*

Bu davrda xalqqa yetakchilik qilishni da'vo qilgan ulamolar zamonaviy dunyoviy ilmlarda savodsiz edilar. Vaholanki, shariat dunyoviy ilmlarni o'rganishga qarshi bo'lmasdan, aksincha, "Chinga borib bo'lsa-da, ilm o'rganish"ga da'vat qilar edi. Xalq orasida har qanday yangilikka shubha bilan qarash, o'z qobig'iga bekinib olish hollari tomir yoygan bo'lib, o'z-ga dinga sig'inadigan xalqlar tili, madaniyati, urf-odati va ilm-fandagi yutuqlarini o'rganish ayrim kimsalar uchun e'tiqoddan chekinish bo'lib tuyular edi. Bu esa chor Rusiyasi siyosati uchun ayni muddao bo'lgan, chor hukumati o'z mustamlakasidagi xalqlarni doimo bilim-



sizlik va ongsizlikda saqlashga harakat qilib kelgan. Jadid g'oyalari mohiyat e'tibori bilan Rusiya hukmronligiga xavf solar edi, shuning uchun chor ma'murlari jadidchilikning keng qanot yozishiga doimo to'sqinlik qilib keldilar. Shunga qaramasdan, Turkistonda fidoyi millatparvarlar soni kundan-kunga ortib bordi. Shoir va yozuvchilar, asosan, ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy ruhdagi asarlarni yozishga kirishdilar. Adabiyot xalqni uyg'otuvchi jangovar qurol vazifasini bajara boshladi.

1917-yilda chor hukumati yiqitilgach, jadidlar o'z siyosiy maqsadlarini ochiq bayon qila boshladilar. Ayniqsa, Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishi jadidlar qalbini quvonch va g'ururga to'ldirib yubordi, umidlarini qanotlantirdi.

Turkiston Muxtoriyati Qo'qon shahrida e'lon etilgan bo'lsa-da, uning amalga oshishida Toshkent va boshqa shaharlardagi fidoyi

ma'rifatparvarlarning roli katta edi. Bu haqda sovet tarixchisi P. Alekseyenkov yozadi: *"Qo'qon Muxtoriyatini tayyorlash va keyingi tashviqot ishlarida Toshkent milliy burjuaziyasi, shuningdek, rus burjuaziyasi ancha faol rol o'ynadi. Turkiston Muxtoriyati g'oyasi-ning o'zi Toshkentda tug'ilgan edi, uni amalga oshirish uchun taniqli toshkentlik aksilinqilobchilar atayin Qo'qonga bordilar, qolgan qismi esa Qo'qon Muxtoriyati uchun faol tashviqot ishlarini davom ettirdilar va, hatto, tashviqotdan amaliy harakatga o'tishga urinib ko'rdilar"*<sup>3</sup>.

Ko'chirmada "milliy burjuaziya", "aksilinqilobchilar" sifatida tilga olingan shaxslar el-yurt istiqboli uchun qayg'urgan va shu yo'lda jon bergan jadidlardir.

<sup>3</sup> Алексеенков П. Кокандская автономия. — Т.: Узгиз, 1931. — стр. 28.



Mustaqillikka erishish oʻlkaning har bir shahar va qishlogʻida yashovchi taraqqiyparvar, millatparvar kishilarning orzusi edi. Shuning uchun ular muxtoriyatni olqishladilar va har tomonlama qoʻllab-quvvatlay boshladilar.

Oʻsha davrda Mahmudxoʻja Behbudiy, Fitrat, Choʻlpon, Hamza singari jadidlar-ning Muxtoriyatni olqishlab yozgan sheʼr va maqolalari bunga misol boʻla oladi. Gʻulom Zafariy ham bu davrda siyosiy hayotda faol ishtirok etdi. Ayniqsa, uning **“Ishchilar dunyosi”** jurnalidagi faoliyati eʼtiborga sazovordir. “Ishchilar dunyosi” jurnalining mualliflari bir guruh vatanparvar jadidlar boʻlib, unda, asosan, Vatan erki va ozodligini kuylovchi, shuningdek, Turkiston Muxtoriyatini quvvatlovchi asarlar bosilardi. Shoʻro davrida yozilgan tarixlarda esa mazkur jurnalga quyidagicha taʼrif va tavsif berilgan: “Ishchilar dunyosi” 1918-yil 4-yanvardan boshlab Toshkentda chiqa bosh-

ladi. Har o'n besh kunda bir chiqadigan bu jurnal yerli burjua tilaklarini sho'roga qarshi unsurlarning ideyalarini yerli ishchilar nomidan himoya qilib, ishchilar matbuoti tarixida o'zidan qora bir "nishon" qoldirib ketdi (olti-yetti nomer chiqib marhum bo'ldi).

Bu jurnal o'z davrida sho'rodan bosh tortib, mamlakatda islom siyosati yurgizish kerakligini, u bolsheviklarning "muttaham"ligini ochib berishni va xususiy mulk uchun kurash lozim ekanligini yerli ishchilar ismidan maydonga otdi.

*"Ishtirokiyunlik mazhabidan qochish kerak", deb qichqirdi... Pastdan (ishchilardan) muxbirlari yo'q. Yaqin yozishg'uchilari: Mulla G'ozil Yunus Muhammad o'g'li, Gulom Zafariy, Ishchi, Laziz Azizzoda, Muhammad Yusuf Mahammadali (Yusuf Aliyev), Mirmashriq Miryunus o'g'li (shoir Elbek).*

*Musulmon o'g'li ham Mirmulla Shermuhammad o'g'li edi"*<sup>4</sup>.

E'tibor bering, g'ayrimillat Alekseyenkovning 1931-yilda yozgan fikrlari bilan Ziyo Saidning deyarli o'sha yillarda yozgan mulohazalari aynan o'xshash, G'ulom Zafariylar avlodiga munosabat masalasida ularning qarashlarida mutlaqo farq yo'q.

G'ulom Zafariy bu jurnalda e'lon qilingan she'rlarida yosh-u qari barchani qo'liga qurol olib, muxtoriyatni himoya qilishga, mustaqillikni ko'z qorachig'idek asrashga chaqiradi:

*Bizni tilagimiz avvaldan erdi,*

*Muxtoriyatimiz e'lon etildi.*

*Bizlardan xizmat kutar endi,*

*Saloh ustiga otiling, ishchilar*<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Ziyo Said. O'zbek vaqtlı matbuoti tarixiga materiallar (1870–1922). Kitobda: Tanlangan asarlar. — T., 1974. 60-bet.

<sup>5</sup> Ishchilar dunyosi. 1918, 2-son. 29-bet.

Gʻulom Zafariy koʻpgina asarlarida turkiy xalqlarning shonli moziysini esga oladi, oʻz davri bilan taqqoslaydi, millat ahvolidan kuyunib, turkiy xalqlarga qaramlik yarashmasligini taʼkidlaydi:

*Turk edi hamma olamga hokim,*

*Jahon shohlari edilar mahkum.*

*Na zillat, bizga birovlar hokim,*

*Yetar mahkumlik bizga, ishchilar.*

Gʻulom Zafariy “Ishchilar dunyosi” jurnalida eʼlon qilingan koʻtarinki ruhdagi, vatanparvarlik, millatga muhabbat tuygʻulari bilan toʻlib-toshgan, ozodlikni ulugʻlovchi sheʼrlarida millatni oʻzlikni anglashga, vatan uchun buyuk kurashga oʻtlanishga chorlaydi, milliy ozodlikka erishish uchun vaqt yetib keldi deb bong uradi, “Tarixga boqing, kim edik bizlar, Amir Temur kabi ulugʻ ajdodlarimizga munosib farzand boʻlaylik”, deb xitob qiladi. “Ishchilar dunyosi” jurnalining 1918-yil 2-sonida bosilgan

**“Quvvatimiz askardir”** maqolasida G'ulom Zafariy shunday yozadi:

*Hamiyatparvar turkistonliklar!*

*Biz, turkistonli turk bolalari, Muxtoriyat e'lon etdik. Endi Muxtoriyatimiz barqaror o'lsun, desak, bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlardir. Quvvatimiz bo'lgan askarlarga jon-u dil ila boqib, qalbimizni unga tavajjuh etaylik, aslo unutmaylik, och, suvsiz tursak ham, boshqa bir narsaga qaramasdan, qahramon askarimiz tushunaylik. Zero, bu jamiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir, buning ila buyuk bo'ladir... buning ila ajdodi a'zamimiz bo'lgan fotihlarning, qahramonlarning ruhini shod etaylik, moziyimizni xotira keltirib istiqbolimizni tayin etaylik!”<sup>6</sup>*

Yangi e'lon qilingan Muxtoriyat hukumati hali o'z mustaqilligini himoya qila oladigan

<sup>6</sup> Ishchilar dunyosi. 1918, 2-son. 28-bet.



kuchga ega emas edi. Shuning uchun hukumat o'z armiyasini yaratishga kirishadi... Muxtoriyat hukumati oldida zudlik bilan askarlar soni va sifatini oshirish, mustaqillikni himoya qila oladigan darajaga yetkazish vazifasi turardi. Bunda u xalq madadi va mahalliy boylarning moddiy yordamiga umid qilardi. Yuqorida parchasi keltirilgan maqolada G'ulom Zafariy Vatan va millat hayajonli, shu bilan birgalikda, qaltis vaziyatni boshdan kechirayotganligi, uning ijobiy hal bo'lishi har bir turkistonlikning bundan buyongi harakatiga bog'liqligini ta'kidlaydi, milliy armiya tuzishuchun barchani imkon qadar yordam berishga chaqiradi. Lekin Muxtoriyat hukumati milliy armiyani o'z mustaqilligini himoya qila oladigan darajaga yetkazishga ulgura olmadi. Turli shaharlardan o'z maslakdoshlariga yordamga yetib kelgan bolsheviklarning harbiy qismlari arman dashnoqlari qo'li bilan Turkiston Muxtoriyati va



uning tayanchi bo'lgan Qo'qon shahrini qonga botirdilar.

Muxtoriyat halokatga uchrashining turli sabablari bo'lib, bular, avvalo, xalq orasida hamjihatlik yetishmasligi, hukumat ichidagi ichki nizolar, yaxshi qurollangan muntazam qo'shinining yo'qligi va boshqa omillar bo'lgan.

Turkiston Muxtoriyatining halokatga uchrashi barcha millatparvarlarni chuqur qayg'uga soldi. Shoir va yozuvchilar asarlarida bir muddat tushkunlik va umidsizlik ohanglari hukmronlik qildi. G'ulom Zafariyning **“Ishchilar dunyosi”** jurnalining 1918-yil 5-sonida bosilgan she'rida ana shunday Vatan va millat taqdiridan xavotirlanish tuyg'usi ifodalanadi:

*Muncha g'amlar yetishmayurmi menga?*

*Tolpinur ruhim huzun sorig'a.*

*Bormoq istar uzoq mahobat ichra*

*Ko'rungan bir xarobazora.*

O'xshayur qo'rquvli mozora yaqin,  
 Jon yo'q anda, qolib hamma madhush.  
 Kechni salqinidan hama jimjit,  
 Bori sayroydur anda bir boyqush.

Osmonni qaro bulutlar o'rab,  
 Qilub erdi jahon yuzini qaro,  
 Guldurab bir taraf, chaqub chaqmoq,  
 Qo'pub bo'ron, buzilg'on erdi havo.

Mahobat ustinda o'ynashib to'lqin,  
 Yuqori ham quyi bo'lib tog'-tog',  
 Urunub ul xarobag'a shop-shop.  
 Qo'rqushib qarg'alar qilur qog'-qog'.

Qo'rqodur borg'oli anga ko'nglim,  
 Siqilur qaltirab bu dahshatdin.  
 Ko'rubon vahmalik bu manzarani  
 Saqla borib deyur falokatdan<sup>7</sup>.

<sup>7</sup> Ishchilar dunyosi. 1918, 5-son. 75-bet.

Milliy ozodlik uchun kurashda kuchlarning birlashmaganligi, asosiy dushman chetda qolib, o'zaro nizo-janjallar avj olib ketganligi jadidlarning qalbini o'rtagan eng katta og'riq edi. Mana shu parokandalik muxtoriyatning halokatiga sabab bo'ldi. G'animlarning "bo'lib tashlab hukmronlik qil" degan siyosati ularga juda qo'l keldi. Ittifoqsizlik, milliy birlikning yetishmasligi millat uchun katta bir balo ekanligi, muxtoriyatni ham halokatga olib borishi mumkinligi haqida Turkiston jadidlarining yo'l boshchisi **Mahmudxo'ja Behbudiy** muxtoriyatning ilk kunlaridayoq ogohlantirgan edi: *"Bilingki, hozirda Turkistondag'i barcha xalqlar uchun muxtoriyat e'lon qilindi va siz bilingki, haq olinur, lekin berilmas. Inchunin, muxtoriyat-da olinur, lekin berilmas, ya'ni muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zlari birlashib, g'ayrat ila olur. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalar qo'lidan kel-*

sa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi barcha xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'lig'a sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar, bul, albatta, shundaydir va bul so'zg'a hech kim ixtilof qilolmaydur.

Agarda bizga o'z boshimizg'a, shariat, urf-odatimizga muvofiq tirikchilik qilmoq kerak bo'lsa, hammamiz vaqtli nizo va manmanliqni qo'yib, hamma narsani esdan chiqarib, yolg'iz muxtoriyat uchun har nimsamizni fido etmog'imiz lozimdur. Munday fursat va zamonning bizga qaytib kelishi ma'lum yo'q, qadrini bilib ishlamoq kerakdur. Vaqt o'tgandan so'ng o'kinmoq foyda etmas"<sup>8</sup>.

Buyuk millatparvarning xavotirlanishi bejiz emas edi. Muxtoriyat e'lon etilgandan keyin

---

<sup>8</sup> Behbudiy. Qozoq qarindoshlarimga ochiq xat.//Hurriyat. 1918, 26-yanvar.

ham milliy ozodlik yo'lida birlashish o'rniga ittifoqsizlik, har bir toifa, har bir guruhning faqat o'z manfaatini yuqori qo'yishga urinishi milliy parokandalikning yanada avj olishiga sabab bo'ldi. Hatto, Muxtoriyat hukumati a'zolari orasida ham har xil nizolar bo'lib turar edi. Oxir-oqibat, Behbudiy ogohlantirgan voqealar sodir bo'ldi.

Qo'qon shahri vayron etilib, Muxtoriyat halokatga uchragandan so'ng, o'lkada zo'ra-  
vonlik, talonchilik, ocharchilik avj olib ketdi. Jannatlardek go'zal vodiylar vayronaga aйлan-  
di. Vatanimiz tarixidagi bu ayanchli bir davrni  
Cho'lpon o'zining yurak qoni bilan yozilgan  
"Buzilgan o'lkaga", "Yong'in" kabi she'rlarida  
cheksiz hasrat va qayg'u bilan ifodalab bergan  
edi.

Ana shunday ruhda yozilgan "**Da'vat**"  
she'rida G'ulom Zafariy "ittifoq nima ekanli-  
gini bilmagan, yolg'iz manfaati shaxsiyasi yo'-

lida bir-birini yeb-ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahaamlar”ning urchib ketganligi tufayli Turkiston o‘lkasi mana shunday xor va zalil ahvolga tushganligini nadomatlar bilan bayon qiladi, Yaratgandan bu xalqqa ham yorug‘ kunlar hadya etishini so‘raydi:

*Ne uchun islomi, yo Rab, yetmaydiansan  
dodina,*

*Inson avlodini zolim aylading o‘z zodina,  
Boqmayurlar bir-birining dodina-*

*faryodina,*

*Sariri ohim ko‘tarsam bu jahon ayvonina-*

*Kim, ko‘rinsun barqi ohim shohina,*

*xoqonina.*

*Mehr-u shafqat o‘rniga keldi bu kun*

*jabr-u jafo,*

*Boylari bermoq zakot o‘rniga oldilar ribo,*

*Ochlari o‘lmoqda ochdin, boylari*

*aylar safo,*

*Chunki kelmishdur(ki) vahshat, yo'q  
o'lub adl-u vafo,  
Tashnalanmish xalq doim bir-birining  
qonina.  
Bir tarafni bosdi zolim to'zdurub o'z  
zulmidin,  
Urdi, yiqdi, o't qo'ydi, o'ldi necha  
bekafan,  
Qoldi odam o'rniga boyqush ila zog'-u  
zog'an.  
O'ldiranlar ham, o'lanlar ham barobar  
ihvon ekan,  
Yo'q qo'yan qiymat nadin dunyoda  
qardosh-qo'lina...<sup>9</sup>*

**Muxtoriyat halokatga uchragach, G'ulom Zafariy yana maorif va teatr ishlariga sho'ng'ib ketadi.** Maktabda muallim, "Karl Marks" teatr truppasida aktyor va butafor ustasi, teatr uyushmasida rais muovini bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bolalar

<sup>9</sup> Ishchilar dunyosi. 1918, 6-son, 94-bet.

uchun kichik-kichik sahna asarlari yarata borib, o'zbek adabiyotida bolalar dramaturgiyasiga asos soladi.

**1920-yilda uning o'zbek adabiyotidagi birinchi musiqali drama bo'lgan "Halima" asari sahna yuzini ko'rdi.** Bu pyesa G'ulom Zafariyga beqiyos shuhrat keltirdi. Drama o'tgan asrning 20-30-yillarida sahnadan tushmay, tomoshabinlarni o'ziga maftun etgan edi. Bu asar o'z jozibasi, g'oyasi bilan butun bir o'zbek bo'g'iniga ta'sir ko'rsatgan.

G'ulom Zafariy va boshqa muxtoriyatchilarning Turkiston Muxtoriyati davridagi faoliyati sho'ro hukumatining nazaridan chetda qolmadi. Ammo ular hali qulay fursatni kutar, "arqonni uzun tashlab qo'ygan edilar". Ular Qo'qon shahrida amalga oshirgan, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan vahshiyliklari tufayli bo'layotgan xalq g'alayonlarining butun Turkiston bo'ylab ommaviy tus olib ketishidan



cho'chishardi. Hali to'la oyoqqa turib olmagani sho'ro hukumati xalq bilan murosa qilishga majbur edi. Muxtoriyatchilar ham shunga ko'ra go'yoki afv etilgan edilar. 20-yillar oxiri, 30-yillar boshiga kelib, to'la oyoqqa turib olgan sho'rolar eski adovatini qo'zg'ab, avvalgi muxoliflarini birin-ketin jismonan mahv eta boshladi. Dastlab turli mantiqsiz bahonalar bilan, keyinchalik yoppasiga millatning guli bo'lgan ziyolilarni, asl millatparvar insonlarni "xalq dushmani" tamg'asi ostida yo'qotishga kirishildi. G'ulom Zafariy ham bunday qismatdan chetda qolmadi. **1932-yilda unga nohaq ayblar qo'yilib, Janubiy Sibirga surgun qilinadi.**

Butun umrini xalqining ozodligi, baxt-saodati uchun fido qilgan adibni 1937-yilda "xalq dushmani" deb e'lon qilishadi va u otuvga hukm etiladi. Aslida bu hukmga O'zbekiston sho'ro yozuvchilarining I jumhuriyat qurultoyi-

da fatvo berilgan edi deyish mumkin. Qurultoyda sho'ro hukumatining mafkurasi uning o'zi yetishtirgan mahalliy kadrlari tilidan bayon qilindi. Qurultoyning hisobot ma'ruzasida jadidchilik harakati va jadid adabiyoti haqida ham batafsil to'xtalib o'tildi. Unda jadidchilik harakatining paydo bo'lishi omillari, jadid adabiyotining yaratilishi, taqdiri, taraqqiyot darajasiga sho'ro mafkurasi nuqtayi nazaridan siyosiy baho berildi. Hisobot ma'ruzasida jadid adabiyotining yetuk namoyandalari ijodi va faoliyatining Oktabr to'ntarishidan to I qurultoygacha bo'lgan davri taftish qilinib, ularning aksinqilobiy harakatlari "fosh etib tashlandi". Katta minbardan turib "Oktabr inqilobidan keyin ham aksinqilobiy burjuaziya va uning mafkurachilari o'z ijodlarida, harakatlarida mil-latchilik g'oyasini ilgari surib keldilar va shu

bilan proletariyatga, sovetlar hokimiyatiga qarshi kurashib keldilar. Shubhasiz, mahalliy burjuaziyaning ayrim agentlari bizning partiyamiz ichida ham boʻldi<sup>10</sup> kabi soʻzlarning aytilishi yaqinlashib kelayotgan dahshatli qatagʻondan darak berardi. Millatning tunday qora, achchiq taqdiriga kuyunib, unga yorugʻliklar sogʻingan adiblar ijodi shunday baholandi: *“Avvalo, shuni aytish kerakki, oʻzbek adabiyotida burjuaziya yozuvchilari Oʻzbekiston mehnatkashlarini panturkizm, millatchilik gʻoyalari bilan zaharlashga, ularni Sovet Ittifoqidan ajratib olishga harakat qilib keldilar. Mana shu gʻoya ularning hamma davrlaridagi kurashlarida aks etgan. Shu bilan birga, bu harakat, bu shakldagi kurash hozirgi kunda ham juda yashiringan holda davom qiladi, shuning uchun ham biz oʻzimizning qurulto-*

<sup>10</sup> Majidiy R. Gʻalabalar yoʻli. // Kitobda: Isteʼdod va burch. — T., 1974, 12-bet.

yimizda o'tgan tarixiy davrni ko'zdan kechirib o'tishimizni zarur topdik"<sup>11</sup>. Shundan so'ng Fitrat, Cho'lpon, Elbek, Botu, G'ulom Zafariy, Shohid Ehsonlarning ijodi "sinfiy hushyorlik" bilan taftish qilinib, ularning "adabiy merosdan foydalanish shiori ostida, tarixni o'rganish" shiori ostida proletariatga, sho'ro hokimiyatiga qarshi olib borgan yashirin kurashi "ko'rsatib berildi". Jumladan, G'ulom Zafariy faoliyati haqida shunday deyildi: "Bu programmalarni G'ulom Zafariy o'sha vaqtda: "moziyimizni xotirlaylik", "eshitingiz, turk bilan faxr etgan millat", deb ifoda qilgan."<sup>12</sup> Bu iqtiboslar uning 1918-yilda Turkiston Muxtoriyatini qo'llab yozgan "**Quvvatimiz askardir**" maqolasidan olingan. Bu aybnoma o'sha davrdagi manfur tuzumga adibni qatag'on qilish uchun kifoya qilar edi. To'g'ri, G'ulom Zafariyning

<sup>11</sup> O'sha manba, 14-bet.

<sup>12</sup> O'sha manba, o'sha bet.

sho'ro tuzumiga muxolif bo'lib kelganligi rost. Ammo **1937-yilda unga qo'yilgan Angliyaning josusi ekanligi va bu ishga Fitrat va Cho'lponni ham jalb qilganligi to'g'risidagi aybnoma g'irt tuhmat edi.** "Salla desa kalla keltiradigan" Stalin jallodlari bu buyuk adiblarni o'ta vahshiyona azoblar bilan qiynab "o'z ayblari"ga iqror qildirardilar. Adabiyotshunos Murtazo Qarshiboyevning "Muhit erkidagi tutqunlik" maqolasida 1938-yil 2-oktabrda turmada bo'lib o'tgan tergov chog'ida Fitrat va Cho'lponning yuzlashtirilishi protokolidan parcha keltirilgan. Ushbu protokolda G'ulom Zafariyga bevosita aloqador o'rinlar bo'lgani uchun ayrim ko'chirmalar keltiramiz:

**"Fitratga savol:** *Sulaymonov Abdulhamidning Said afandi bilan aloqasi bormidi?*

**Javob:** *Men tergovda keyingi davrda uyg'oqchilik ishi bo'yicha Angliya razvedkasining rezidenti Said afandi bilan bog'lan-*

ganim to'g'risida ko'rgazma berdim. Men bu ko'rgazmalarimni tasdiqlayman. Men Said afandi bilan G'ulom Zafariy orqali aloqa qilib turardim. 1930-yilda G'ulom Zafariy menga Cho'lpon va u ikkalasi Said afandidan pul olganini aytdi. Mening Cho'lponni — Sulaymonovni Said afandi bilan aloqasi haqida eshitgan gapim shugina, xolos...

**Sulaymonovga savol:** Siz bergan ko'rgazmalarda mutlaqo ayon bo'lyaptiki, siz Angliya razvedkasining ayg'oqchilari bilan aloqa qilgansiz. Sizning Said afandi bilan, Baxshullaxonov bilan, Po'latov va G'ulom Zafariylar bilan o'zaro munosabatingizni haqiqiy xarakteri haqida ko'rgazma bering.

**Javob:** Men G'ulom Zafariy bilan juda yaqindan tanish ekanligimni tan olaman. Po'latovni, Said afandini, Baxshullaxonovni, qay darajada bilishimni esa aytdim. Sanab o'tilgan shaxslarning ayg'oqchilik qilganini

*bilmasligimni tasdiqlayman. Na bevosita, na G'ulom Zafariy orqali men Said afandidan pul olganim yo'q, o'zim ayg'oqchi bo'lganman, men millatchi edim va bu haqda ko'rgazma berdim".*

Tergovda bot-bot nomi tilga olingan Said afandi hech qanday Angliya josusi emas edi. U oddiy tabib bo'lib, G'ulom Zafariy, Fitrat, Cho'lponlar bilan o'z kasbi yuzasidan uchra-shib turgan. Ular milliy ozodlik masalalarida ham suhbat qurgan bo'lishlari mumkin. Lekin millatparvar adiblarning vatan xoini, josus sifatida ayblanishi o'ta mantiqsiz edi. Bunday tuturiqsiz aybnomalarni 30-yillar matbuotida juda ko'plab uchratish mumkin. **“Qizil O'zbekiston”** gazetasining 1937-yil 6-oktabr sonida Sherbek Aliyev, Hoji Shorahmedovlar imzosi ostida bosilgan **“Burjuaziya millatchilarining san'at sohasidagi ziyonchiliklari”** maqolasida shunday deyiladi: *“Xalq dushmani*

Fayzulla Xo'jayevning "zakazi"ga"ga muvofiq aksilinqilobchi millatchi Fitrat yozgan, o'zbek xalqining dushmani bo'lgan jadidlar ni ko'klarga ko'targan "To'lqin" pyesasini, millatchi G'ulom Zafariyning "Halima" sini dushmanlar hatto Moskvada o'zbek san'ati o'n kunligida sahnaga qo'ymoqchi bo'lib tayyorlaganlar. Dushman Fitratning ham "To'lqin" pyesasi postanovkasini tayyorlash uchun 50 ming so'mlab pul ko'kka sovurilgan"<sup>13</sup>.

Sho'rolar hukumati milliy ziyolilarga qarshi kurashda o'ta makkorona siyosat olib borib "sopini o'zidan chiqarish" yo'lini tutdi, ilg'or ziyolilar o'rtasiga nifoq solib, bir-biriga qarshi qo'ymoqqa va shu tariqa ularni safdan chiqarmoqqa urindi. Uning bu manfur rejasi qisman ish bersa-da, asl millatparvar ziyolilar o'z yo'llaridan chekinmadilar. Bunday sodiq

<sup>13</sup> Qarang: Tanqid "dushman" izlaganda. Nashrga tayyorlovchi: Sh. Turdiyev // O'zAS. 1988, 29-iyul.



insonlar G'ulom Zafariy surgunda yurganda ham uni unutmadilar, unga va oilasiga moddiy, ma'naviy yordam berib turdilar.

Ma'lumki, 20-yillar ikkinchi yarmidan boshlab, sho'ro hukumati tomonidan sun'iy ravishda ziyolilarni bir-biriga gijgijlash, fitna urug'ini sochish siyosati olib borildi. Buning oqibatida, ig'vogarlik, chaqimchilik kabi illatlar keng tus ola boshladi. Abdulla Qodiriy iborasi bilan aytganda, **“adovat mamlakat rangiga bo'yaldi”**. Bu qabih siyosatdan eng ko'p jabr tortganlardan biri ham Abdulla Qodiriy edi. To'g'riso'zligi, haqiqat yo'lida o'sha davrdagi hukumat rahbarlarini ham ayab o'tirmasligi tufayli u 1926-yilda qamoqqa olindi. “Natijada, uning katta oilasi moddiy, o'zi esa ma'naviy azobga giriftor bo'ldi.

Bunday paytlarda cho'kayotgan kimsaga madad qo'lini uzatuvchi kishilar anqoning urug'i bo'ladi. Ammo Abdulla Qodiriyning

baxtiga, uning yonida G'ulom Zafariy singari mehr-oqibatli do'stlari bor edi.

G'ulom Zafariy shunday mushkul kunlarda azob o'tida qovrilgan onaga, Qodiriy oilasiga shirin so'zi, uy-ro'zg'oridan orttirgan non-tuzi bilan ko'mak berib turdi, qadrdon do'stini qutqarish yo'lini axtardi. Uning qo'lidan keladigan birdan-bir narsa esa Josiyat bibi nomidan ariza yozish edi. Va u bibi nomidan rus va o'zbek tillarida talaygina arizalar yozib berdi.

Mahbus yozuvchini kafillikka olishga tayyor kishilardan biri ham G'ulom Zafariy edi... Taxmin qilish mumkinki, u arizalar bitish bilan cheklanmay Yo'ldosh Oxunboboyev singari respublika rahbarlari oldiga ham yozuvchini ozod qilishlarini so'rab, do'stlari bilan chiqqan.

Har holda o'sha yili 17-iyunida Abdulla Qodiriyning hibsdan ozod etilishida qadrdon

dó'sti G'ulom Zafariyning ham xizmati yo'q emas"<sup>14</sup>. G'ulom Zafariyning ma'naviy qi-yofasini ko'rsatib beradigan bu kabi ko'plab ma'lumotlarni keltirish mumkin.

Asrimiz boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va G'ulom Zafariy adabiy-ijtimoiy faoliyatining ayrim xarakterli jihatlarini yoritish bo'yicha olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, G'ulom Zafariy o'z davri-ning eng ilg'or ziyolilaridan biri bo'lgan. U butun umri davomida milliy mustaqillik yo'li-da kurashgan, madaniyatimiz, ilm-u fanimiz gullab-yashnashini orzu etgan va o'z asarlari bilan imkon qadar shu ishga o'z hissasini qo'shgan.

**SHE'RLARI VA LIRO-EPIK ASARLARI.** G'ulom Zafariy — serqirra ijod sohibi. **U shoir, dramaturg, publitsist,**

<sup>14</sup> Karimov N. Yozuvchi, zamon, muhit. // Toshkent haqiqati. 1994, 17-dekabr.

**aktyor, rejissor, bastakor, teatrshunos, mu-  
siqashunos, folklorshunos hamdir.** Boshqa  
taraqqiyparvar jadidlar singari u ham adabiyo-  
timiz, madaniyatimizning dolzarb muammola-  
rini hal qilishga o‘z hissasini qo‘shgan ijodkor.

G‘ulom Zafariy o‘z ijodini she‘r yozishdan  
boshlagan. Uning **ilk she‘ri “Ey ilm” nomi  
ostida 1914-yil “Oyina” jurnalida bosil-  
gan.** Xuddi shu yili “Sadoyi Farg‘ona” da “Ja-  
holatdamiz” she‘ri ham e‘lon qilingan. Ushbu  
she‘rlar o‘sha davrdagi taraqqiyparvar o‘zbek  
ziyolilari qalbini o‘rtagan millat ongi va ruhini  
egallab olgan jaholat muammosiga bag‘ishlan-  
gan. Shundan so‘ng to 1917-yil oxirlarigacha  
G‘ulom Zafariyning nomi matbuot sahifasida  
deyarli uchramaydi. Bu holni uning ko‘proq  
maorif va teatr sohasiga “sho‘ng‘ib ketganligi”  
bilan izohlash mumkin.

1917-yil oxirlarida u “Ishchilar dunyosi”  
jurnaliga bo‘lim muharriri bo‘lib ishga kira-

di. Qisqagina umr ko'rgan ushbu jurnaldagi uning she'r va maqolalari Turkiston Muxtoriyatiga bag'illangan. Ushbu asarlar haqida biz yuqorida ozmi-ko'pmi fikr yuritganimiz uchun ular haqida to'xtalib o'tirmaymiz. "Ishchilar dunyosi" jurnalida bosilgan she'rlaridan so'ng G'ulom Zafariy dramatik asarlaridagi she'riy matnlarni hisobga olmaganda, shoir sifatida faqat katta hajmdagi liro-epik asarlar — dostonlarnigina yaratdi.

XX asrning birinchi choragi o'zbek adabiyoti tarixida keskin o'zgarishlar davri bo'ldi. Ming yildan beri Sharq madaniy muhitida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyotiga bu davrda G'arb adabiyotiga xos unsurlar kirib kela boshladi. She'riyat ijtimoiylik kasb etadi. Ov-ro'po usulidagi teatr paydo bo'lishi natijasida dramaturgiya shiddat bilan rivojlandi, roman va boshqa janrdagi asarlar ham paydo bo'ldi. She'riyatda an'anaviy aruz vazni o'rnida bar-

moq vazni qoʻllanila boshladi. Bu davrda dostonchilik sohasida ham jiddiy izlanishlar olib borildi. Ovroʻpo dostonchiligi badiiy tajribalari, Sharq mumtoz dostonchiligi va xalq ogʻzaki ijodidagi baxshiyona dostonlarning badiiy xususiyatlaridan istifoda etilgan yangi liro-epik asarlar paydo boʻldi. “Ushbu davr poemachiligi (shu jumladan, lirikada ham) poetik tilida, badiiy uslubda klassik dostonchilikdan oʻtgan tantanavorlik, jimjimadorlik, taʼrif-tavsiflash anchagina saqlangan holda, asosan, realistik usul, realistik ifoda bosh kuchga aylana bordi. Poemalar tilining leksik sostavi, grammatik hamda stilistik qurilishi konkret real hayotiy mazmun, real tushunchalar ifodasi bilan boyiy boshladi”<sup>15</sup>. Bunday asarlarni Fitrat “yangi zamon dostonlari” deb ataydi va shunday taʼriflaydi: *“shoir, adib el adabiyotiga murojaat qilmay,*

---

<sup>15</sup> Rahimjonov N. Oʻzbek poemachiligining shakllanish xususiyatlari. // Oʻzbek tili va adabiyoti. 1987, 6-son.

*o'z ma'lumoti yo o'z xayolining yordami bilan voqeyiy, xayoliy bir qahramon to'g'risida doston yozsa, uning asari "yangi zamon dostoni" ataladir... G'ulom Zafariyning "Cho'pon Temir" va "Vannaycha" degan dostonlari shul yangi zamon dostonlaridir"*<sup>16</sup>.

20-yillardan boshlab sho'ro hukumati o'z hokimiyatini pog'onama-pog'ona mustahkamlay bordi. Yangi ijtimoiy tuzum o'zbek xalqi turmush tarziga ham birmuncha o'zgarishlar kiritdi. Turmushda ro'y berayotgan hodisalar adabiy jarayonga ham ta'sir o'tkazmasdan qolmasdi. Bu davrda poetik tasvir vositalari silsilasiga bir qancha yangi badiiy obrazlar kirib keldi, Sharq mumtoz she'riyatidagi tashbeh va majozlar yangicha ma'no kasb eta boshladi. Hayotda sodir bo'layotgan jarayonlar, muammolarni badiiy tadqiq etishga urinilgan ilk

<sup>16</sup> Fitrat. Adabiyot qoidalari. — Toshkent: O'qituvchi, 1995, 97-bet.

asarlar paydo bo'ldi. Yangicha ruhdagi adabiyot keskin sinfiy va siyosiy kurashlar vaziyatida kechdi. Xalq hayotidagi keskin tarixiy burilish, undagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarish hamda ma'naviy ehtiyoj ko'plab yangi janrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Davrning yangi g'oyalari, voqelikdagi keskin, murakkab jarayonlar insonlar ruhiyatidagi evrilishlar, jamiyatdagi turli alg'ov-dalg'ov tufayli gangib qolgan xalqning o'y-xayollarini aks ettirish adabiyotning galdagi vazifasi bo'lib qolgan edi.

“Kundalik hayotda ro'y berib turgan voqealarni aks ettirishga, real kishilarning to'laqonli obrazini yarata olishga qodir poema janri asta-sekin milliy adabiyotlarga ham o'ta boshladi. Shu xil poemalar yaratishga intilishlar 20-yillar o'zbek poeziyasida ham boshlandi”<sup>17</sup>.

<sup>17</sup> Ibrohimov M. O'zbek sovet poeziyasi janrlarining tarkib topishi (1917–1930). – T.: Fan, 1983. 224-bet.



G'ulom Zafariy dostonchilik sohasida ham kashshoflardan biri edi. Uning **“Gulyor”**, **“Vannaycha”**, **“Cho‘pon Temir”**, **“Yoshlar endi berilmas”** kabi dostonlari o‘sha davr adabiyotida yangi hodisa bo‘lgan. Shoir bu asrlarida ham izlanish yo‘lidan borib, mumtoz adabiyotimizdagi ba‘zi bir an‘analardan voz kechmagan holda, asosan, xalqona usuldan foydalanadi.

Shoirning **“Vannaycha”** dostoni real voqelik asosida yozilgan. Bu asar endigina tetapoya bo‘lib kelayotgan o‘zbek sahnasida charaqlagan yulduz misol bir yonib o‘chgan o‘zbek qizining fojiali o‘limi munosabati bilan yozilgan. Bu davrda sahnada o‘zbek ayollari kamdan-kam ko‘rinar, har qanday iste’dodli qiz ham o‘z san‘atini sahnada namoyish qilishga jur‘at qilavermasdi.

Asardagi Vannaychanning eri — uni o‘ta qudratli, ammo johil rashk bilan birgalik-

da sevuvchi yigit obrazi ancha jonli chiqqan. Sho'ro davri adabiyotining eng katta qusuri — qahramonlarni ikkiga — ijobiy va salbiy qahramonlarga ajratib, birini oq, ikkinchisini esa faqat qora bo'yoqlar bilan tasvirlashdan bu doston xoli. Shoir sevguvchi yigitning ko'r rashk oldidagi ojizligi, qalb fojiasi, iztirob-u alamlarini ham ko'rsatib berishga uringan. Yigit o'z qurbonini o'ldirib shunday ketavermaydi, u o'ksib-o'ksib yig'lab, pushaymonlar qiladi, kesilgan boshni qo'liga olib, uni kechirishni yolvorib so'raydi. Ikki o't o'rtasida o'rtanayotgan, to'xtamasdan yuzini timdalab yig'layotgan yigitning qalb fojiasi tasviri o'quvchini larzaga soladi, o'z rashkining qurboni bo'lgan o'zbek Otellosiga nisbatan kishida jinday achinish hissi paydo bo'ladi.

Xalq qo'shiqchisi Vannaycha o'limi munosabati bilan Cho'lpon ham mansura shaklida doston yozgan edi. Faqat Cho'lpongagina

xos bo'lgan nozik tashbehlar hamda dard-u alamlar hosilasi bo'lgan ushbu asarda G'ulom Zafariy dostonidan farqli o'laroq shoir qalbi-da Vannaycha fojiasi munosabati bilan paydo bo'lgan tuyg'ular, chuqur qayg'u bevosita o'z ifodasini topgan.

Xalq qo'shiqchisi Vannaychanning o'limi har ikki shoirni ham birday larzaga solgan, ular chekkan iztirob qalblaridan doston bo'lib sizib chiqqan.

Ming yillik urf-odatlar, e'tiqodlarning zil ketishi, dunyoqarashlarning shafqatsiz to'qnashuvi qurbonlarsiz kechmaydi. Ana shu jarayonda, odatda, Vannaycha singari o'z davridan ilgarilab ketgan kishilar qurbon bo'ldilar.

Vannaychaxonning fojiali qismati G'ulom Zafariyning "Halima" dramasida bosh rolni ijro etgan birinchi o'zbek aktrisasi Tursunoy Saidazimova taqdirida ham takrorlandi. U ham Vannaycha singari o'z eri tomonidan o'ldirilgan. Bu voqea munosabati bilan

Cho'lpon ham, Hamza ham yozdilar.

G'ulom Zafariyning **“Cho'pon Temir”** nomli dostonining mazmuni “Oshiq G'arib”, “Tohir va Zuhra” kabi xalq kitoblarini yodga soladi. Ko'plab ertak va dostonlarda uchragani kabi bu dostonda ham befarzand boy kambag'alning o'g'li Temirni o'ziga asrandi o'g'il qilib oladi. Temirning qadami yoqib, boy xotini ham qiz ko'radi. Yillar o'tib, Temir va boyning qizi Gulasal voyaga yetadilar. Ular o'rtasida samimiy muhabbat hislari paydo bo'lib, ular bir umr birga bo'lishga ahd-u paymon qilishadi. Bundan xabar topgan boy qizini kambag'al yigitga berishdan or qilib, Temirni o'z xonadonidan quvib yuboradi. Temir tog'-u toshlarda cho'ponlik qilib yurib, yor firoqida azoblar chekib mungli qo'shiqlar aytadi. Bu dardchil qo'shiqlarni tasodifan eshitib qolgan Boburshoh sevishganlarning bir-biriga yetishishiga yordam beradi. U qizning ota-

sini chaqirtirib, uni koyiydi, Gulasalni keltirib, to'y-u tomoshalar bilan Temirga nikohlab beradi. Doston ana shunday nekbin kayfiyatda yakunlanadi.

“Cho'pon Temir” dostonining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, asarga zamonaviy o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib xalq ideali-dagi shoh — Bobur obrazi kiritilgan. Xalq orzusidagi odil shohlarning umumlashgan namunasi bo'lgan Bobur obrazi asarda romantik ruhdagi yorqin bo'yoqlarda tasvirlanadi. U sevishganlar tomonida turadi, ularning oldida paydo bo'lgan to'siqlarni, mushkulotlarni adolatli ravishda hal qilib beradi, hattoki, bu haqda farmon ham chiqaradi:

*Xon dedi: Ey mirzolar,  
Yozing ushbu buyrug'im.  
Bilsin katta-kichiklar,  
Bul mening odilligim.  
Ul bir-birin sevsa kim,  
Olsin o'sha chog' — u kim.*

20-yillarda xalq va jamiyat hayotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Qaddini rostlab olgan yangi tuzum o'z qonunlarini joriy qila bordi. Bu hol kishilar ruhiyatiga, qarashlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Turmushdagi bunday hodisalar adabiyotda o'z aksini topmasligi mumkin emas edi. Adiblar oldida yangi turmush taqdim qilgan mavzularni o'zlash-tirish, yangicha ruhdagi insonlar dunyoqarashi tadrijini ifoda etish vazifasi turardi. G'ulom Zafariyning "Yoshlar endi berilmas" dostoni mana shu yo'ldagi urinishlardan biri bo'ldi.

G'ulom Zafariyning she'riy ijodidagi ijtimoiylikdan xoli bo'lgan asari "**Gulyor**" dostonidir. "Gulyor" — sof sevgi dostoni. Unda go'zallikda tengi yo'q qiz Gulyorning muhabbati va fojiali o'limi tasvirlanadi. G'ulom Zafariy ushbu dostonini xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bir davrda yozganligi uchun bo'lsa kerak, asarda xalqona ruh bo'rtib turadi.

G'ulom Zafariy dostonni Buxorodagi musiqa bilim yurtida ishlab yurgan chog'larida yozgan, shuning uchun ham dostonni o'sha yerda nashr etiladigan "Uchqun" jurnalida e'lon qilgan.

Yuqorida ko'rib o'tgan dostonlarimizdan tashqari G'ulom Zafariy **"Ketmon chopdi"**, **"Qora kunlar"**, **"Yetishdilar murodga"**, **"Yangi ro'zg'or erlari"** kabi dostonlar ham yozgan. Lekin ular, noma'lum sabablarga ko'ra, nashr etilmagan va bizgacha yetib kelmagan. Bu asarlar haqida ba'zi bir ma'lumotlarga bor, xolos.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, G'ulom Zafariy shoir sifatida yangi o'zbek dostonchiligining paydo bo'lishi va rivojlanishiga muayyan hissa qo'shdi. Uning xalqona ruh-dagi, sodda til va uslubda yozgan dostonlari yangi o'zbek dostonchiligining tug'ilishi va taraqqiy etishida bir bosqich vazifasini o'tadi.

**DRAMALARI HAQIDA.** O'tgan asrning 10-yillarida xalqimiz madaniy hayotida Ovro'po usulidagi yangi teatr paydo bo'ldi. O'zbek adabiyotida drama janri vujudga keldi va u qisqa muddatda adabiyotimizning yetakchi janrlaridan biriga aylandi. O'zbek xalqi san'atni juda katta qiziqish bilan kutib oldi. Teatr xalq ongiga ta'sir etuvchi qudratli qurollardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun bo'lsa kerak, o'sha davrning taniqli adiblari orasida dramaturgiyaga murojaat etmaganlari kam uchraydi. Teatr san'ati o'z jozibasi bilan, eng avvalo, taraqqiyparvar ziyolilarni, yoshlarni maftun etgan edi. Teatrda bunday qiziqish tufayli Behbudiyning "Padarkush" asaridan so'ng uning ta'sirida birin-ketin yangi pyesalar yaratila boshlandi.

O'zbek teatrining vujudga kelishi tarixiy zarurat edi. Boshqa turkiy xalqlar, jumladan, turk, tatar, ozarbayjon xalqlarida bu jarayon



birmuncha barvaqt boshlangan bo'lib, yangi o'zbek teatrining vujudga kelishida ularning ham ma'lum hissaları bor.

O'tgan asr boshlarida teatrni millat taraqqiysiga xizmat qildirish mumkinligini tushunmagan, unga qarshi kurashgan kishilar anchagina bo'lgan. Ammo Milliy uyg'onish davrini boshidan kechirayotgan xalqimiz fidoyi farzandlarining sa'y-harakatlari tufayli teatrning ibratxona, millat o'zining kamchiliklari va kelishmagan qiliqlarini ko'rib oladigan ko'zgu ekanligini anglab yetdi. Chor ma'muriyati va mutaassib ulamolarning qarshiligiga qaramasdan teatr shiddat bilan rivojlana bordi.

O'zbek xalqini teatrga oshno etishda G'ulom Zafariyning ham salmoqli o'rni bor. Uning o'ziga xos dramaturgik ijodi 1917-yil o'zgarishlaridan oldin boshlangan. Bu masalani ayrim iqtidorli adabiyotshunos olimlar o'zbek dramaturgiyasining shakllanishiga doir

ishlarida ta'kidlab o'tganlar. B.A. Pestovskiy "O'zbek teatri tarixi" maqolasida quyidagilarni yozadi: "*Zafariy o'rtoqning sahna olamiga va, umuman, san'at va adabiyot dunyosiga ixlosi buyuk bo'lg'onlikdan yaxshigina tajribalar va samaralik xizmatlar ko'rsatdi*"<sup>18</sup>. Darhaqiqat, G'ulom Zafariyning teatrga bo'lgan muhabbati ayricha edi. U xalq teatrining eng yaxshi an'alarini zamonaviy teatrdan qo'llash, milliy san'atimizning turfa ifori bilan to'yingan, xalq ruhiga yaqin bo'lgan chinakam milliy dramatik asarlar yaratish orzusi bilan yonar edi. B.A.Pestovskiyning yozishicha, G'ulom Zafariy ham o'z zamonasining bir qator boshlovchi ijodkorlariga o'xshab Behbudiyning "Padarkush" asaridan ta'sirlanib, 1915-yilda "Baxtsiz shogird" degan drama yozadi. Ammo pyesa nashr qilinmagan.

<sup>18</sup> Pestovskiy B.A. O'zbek teatri tarixi. // Inqilob. 1927, 4-son, 28-bet.

G'ulom Zafariy faqat dramatik asarlar yozish bilan cheklanmasdan, teatr hayotida, uning qaynoq muhitida bevosita ishtirok etib, mahoratli dramaturglar, iste'dodli aktyor va rejissorlar bilan doimiy muloqotda bo'ldi, shuningdek, xalq teatrini, milliy san'atimiz namunalari qunt bilan o'rgandi. Tabiatan musiqaga moyil bo'lgan G'ulom Zafariy teatr va musiqani o'zaro uyg'unlashtirish uchun tajribalar qilib ko'radi. Aslida musiqali dramaning ayrim ko'rinishlari o'zbek xalq teatrida mavjud bo'lgan. Turli musiqali chiqishlar, cholg'u jo'rligidagi satirik yoki lirik aytishuvlar, raqs musiqasi, musiqa jo'rligidagi pantomima, bularning barisi o'zbek xalq teatridan asrlar davomida mustahkam o'rin egallab kelgan. Ayniqsa, qiziqchi va masxarabozlar o'z repertuarlarida bu san'at turlaridan keng foydalan-ganlar. Ular folklor namunalari va xalqimizning boy musiqiy merosini ijodiy ravishda qayta

ishlab, o'z chiqishlarida mahorat bilan qo'llay bilganlar. Natijada keng xalq ommasi didiga mos tomoshabop asarlar vujudga kelgan. Buni teran his qilgan G'ulom Zafariy xalqning talab va ehtiyojini hisobga olgan holda sahna asarlari yaratishga kirishgan.

### **KICHIK SAHNA ASARLARI.**

Turkiston Muxtoriyati tugatilganidan so'ng, boshqa barcha jadidlar singari, G'ulom Zafariy ham elni ma'rifat nuri bilan bahramand etishga, xalq ongida qotib qolgan, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan urf-odatlarini isloh etishga jidd-u jahd bilan kirishdi. O'zbek dramaturglari bu davrda, asosan, ma'rifiy ruh-dagi, ilmni targ'ib qiluvchi, jaholat va xurofotni tanqid qiluvchi asarlar yozdilar. Xalq ongida asrlar mobaynida qotib qolgan jaholatni birdaniga yo'qotishning iloji yo'q edi. Shuning uchun bu ishni, avvalo, bolalar tarbiyasidan boshlamoq, ularning sof qalbiga vatanparvarlik,

kelajakka ishonch, ezgulik va ma'rifatparvarlik tuyg'ularini jo qilmoq lozim edi. Bu ezgu ishni amalga oshirishda zamonaviy teatrning roli beqiyos ekanligini sezgan G'ulom Zafariy bolalar va yoshlar hayotidan olib yozilgan, zamon ruhidagi, axloqiy-tashviqiy xarakterdagi kichik sahna asarlarini yozishga kirishdi va o'zbek adabiyotida bolalar dramaturgiyasiga tamal toshini qo'ydi.

Davr shiddatli kechardi va u barcha ma'rifatparvarlarni hamma sohalarda jo'shqin mehnat qilishga, jumladan, bolalarni kelajak nurli hayotga tayyorlashga, ma'rifatli qilib tarbiyalashga undardi. Dramaturgning 20-yillar atrofida yozilgan **“Bahor”**, **“Gunafsha”**, **“Tilak”**, **“To'sqinchilik”**, **“Rahimlik shogird”**, **“Mozorlikda”**, **“Quyon”**, **“Tatimboy ota”**, **“Erk bolalari”**, **“Tuyg'unoy”** kabi asarlari shu maqsadda yaratilgan. Bu asarlar dastlab havaskorlar sahnalarida namo-

yish qilindi. 1919-yilda yozilgan **“Bahor”** pyesasida dramaturg o‘zi orzu qilgan ideal jamiyatning baxtiyor bolalari hayotini romantik tarzda tasvir etadi. U tabiat qo‘ynidagi bolalarning shod va xurramligi, o‘yin-kulgilarini tasvirlar ekan, yangi fasl — bahor bilan yangi avlod — bolalar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ochishga urg‘u beradi. Dramaturg pyesasining hissiy ta’sir kuchini oshirish uchun tabiat manzaralari tasviridan unumli foydalanadi. **Gullarga burkangan bahor manzarasi fonida “Sayra bulbul”, “Bahor”, “Uzma gul” kabi xalq kuy va qo‘shiqlari ijro etiladi.** Tomoshabinda romantik kayfiyat hosil qilgach, dramaturg o‘z maqsad-g‘oyasini asar badiiy to‘qimasiga singdirib yuboradi, jamiyat guli bo‘lmish yoshlarni bilim uylariga borib, ilm o‘rganishga da’vat qiladi. Bu esa dramaturgning uslubiy mahoratidan darak beradi.

Ushbu pyesa Navoiy sharafiga bag'ishlangan kechada Fitratning "O'g'uzxon" va "Temur sag'anasi" asarlari bilan birgalikda namoyish etilgan. O'sha davr matbuoti bu haqda quyidagicha xabar bergan:

*"Navoiy kechasi 16-avgust, seshanba kuni, Toshkentda "Rohat" sahnasida "Chig'atoy gurungi" tomonidan atoqli adibimiz Navoiy sharafiga bir kecha yasalib, bir pardali "Bahor" (G'ulom Zafariy asari), bir pardali "O'g'uzxon", bir pardali "Temur sag'anasi" (Bu ikkovi Fitrat afandi asari) qo'yildi.*

Birinchi pardada ko'rsatilgan "Bahor" o'perasi ma'naviy jihatidan yaxshigina yozilg'on bo'lsa-da, o'ynog'uchi bolalarg'a harakatni ko'rsatilmag'ani uchun xuddi o'perag'a yerli muzika qo'shilsa-da, bolalar dovuldan kelsa, mashshoqlarning tegirmondan keluvlari o'yinni ruhsiz chiqardi.

*Ikkinchi pardada o'ynalg'on "O'g'uzxon" Toshkentda bir necha marta qo'yilg'on tarixiy bir pyesa bo'lib, adibi qalam birla yaxshi tasvir etilgan bir asar bo'lib, O'g'uzxon ro'lini atoqli artistlarimizdan Uyg'ur afandi tomonidan o'ynolub, xalqni hissiyotin uyg'otdi.*

Ishchi"<sup>19</sup>.

Xabardan ko'rinadiki, o'zbek teatri tarixi shakllanish bosqichlarida qo'yilgan ushbu spektakllarda aktyorlarning ijrochilik mahoratining yetishmasligi sezilib tursa-da, ular madaniy hayotda muhim voqea bo'lgan.

**"Gunafsha"** musiqali dramasi "Bahor"ning mantiqiy davomidir.

Erta bahor chog'i, hali boshqa gullar yuz ochmay turib, bahorning elchisi Gunafsha g'uncha ochadi, qahraton qishdan zada ko'ngillarni quvontirib, bahor kelayotganligidan

<sup>19</sup> Ishchi. Navoiy kechasi. // Ishtirokiyun. 1919-yil, 4-sentabr, 169-son.



darak beradi. Ko'klam sururidan shod-u xur-  
ram bo'lib yurgan bolalar so'raydilar:

*Ey gunafsha, hammadan oldin  
ochilmishsan nega?*

*Barcha gullar uyquda, oldin turadirsan  
nega?*

Qahratonga qarshi ko'krak kerib chiqqan  
gunafsha bunday javob beradi:

*Bog'da bir yolg'iz ochilgan, kimsasiz  
yetim,*

*Hamma guldan bo'yi past, o'ksuk  
gulman.*

*Gulman, ko'rimsiz bir gulman,  
Boshqa gullar bir tomon tursa qanotin  
yozib,*

*Men u chog'da oyoq ostida ko'rinmay  
qolurman,*

*May oyi kelmay turib shuning uchun  
ochilaman.*

Spektaklga jalb etilgan “Reza”, “Ufor”, “Alamon” kabi xalq kuy va qo‘shiqlari asarining ta’sir kuchini yanada oshirgan, unga joziba baxsh etgan.

1919-yilda yozilib, shu yili sahnalashtirilgan **“Tilak”** pyesasida dramaturg o‘zining ezgu orzu-tilaklarini, kurashlarini asar bosh qahramoni Murod tilidan so‘zlaydi. Uning fikricha, millatning taraqqiyotga erishishi uchun uning barcha a’zolari ma’rifatli bo‘lishi shart. Shunday ekan, nega xotin-qizlarning bilim olishiga sharoit yaratilib berilmayapti? Axir butun insoniyatning yarmini xotin-qizlar tashkil etadi-ku! Agar xotin-qizlar savodsiz bo‘lsa, jamiyatning yarmi savodsiz bo‘ladi degani emasmi bu?

Murodning: *“Nega bizda qizlar bilim yurtlari uchun cholishg‘uchilar yo‘q, nima uchun maorif bo‘limlari qarab turadilar?”* degan so‘zlari barcha jadidlarning, jumladan,

G'ulom Zafariyning ham qalbini o'rtagan muammolardan biri bo'lgan. Bu muammoni hal etish jadidchilik harakatining ilk davrlaridayoq kun tartibiga qo'yilgan edi.

Ismoil G'aspirali 1882-yilda "Ayollarni o'qitish kerakmi?" maqolasida yozgan edi: *"Nima uchun qizlarga ilm o'rgatish mumkin emas? Shariat buni man' qiladimi? Yo'q, man' qilmaydi. Imkoniyati bor har bir otana, o'g'il yoki qiz bo'lsin, o'z bolalarini tarbiya etmoqqa, o'qitmoqqa burchlidir. Bolalari uchun ular Allohning oldida ham, jamiyatning oldida ham javobgardirlar... Agar o'g'il bolalarni yaxshi yigit, yaxshi ota va ishbilarmon xodim qilib o'qitmoq kerak ekan, nega qizlarni yaxshi ayol, yaxshi ona va yaxshi uy bekasi bo'lishi uchun o'qitmaslik kerak?! O'g'lonlar erkaklar uchun kerak bo'lgan narsalarni, qizlar xotinlar uchun kerak narsalarini o'rganadilar. Shunda biri yaxshi bilimli*

*ota bo'ladi, biri esa yaxshi, uquvli ona...*"<sup>20</sup>

Xotin-qizlarning ilm olishiga jadidlar-ning bu qadar e'tibor bilan qarashlari bejiz emas edi. Ular millatning kelajagi onalarning qo'lida ekanligini teran anglaganlar. Har bir inson ilk tarbiyani, avvalo, o'z onasidan oladi. Shunday ekan, onaning ma'rifatli bo'lishi millatning porloq kelajagiga garovdir. "Tilak" pyesasida xuddi shu g'oya olg'a suriladi. Ma'rifat nuridan bahramand bo'lgan, qalbi yorug' hislarga to'la Murod kelajakka umid bilan qaraydi, ma'rifat quyoshi chiqib jaholat bulutlarini to'zg'itib yuborishiga ishonadi. "...  
*To'g'ri, bu qarong'iliklar ketur, o'rniga bilim kuni tug'adur, qizlar uchun ham bilim uylari ochilur, elning bolalari o'qimishli onalar quchog'ida yaxshi tarbiya ila yetishur, dunyoda yashamoq uchun bir-biriga muhabbat, hurmat va yaxshilik kerak ekanligini tushu-*

<sup>20</sup> Йилдыз. 1990, 5-сон, 94-бет.



*nurlar, ul chog'da kishilar orasida birlik va qardoshlik o'sar-da, hech bir tortishishlar, talashuvlar bo'lmas".*

Murodning ziddiyatli o'y-xayollarini ochib berishda G'ulom Zafariy dramaturgiyaning turli vositalaridan foydalanadi. Romantik xayollar og'ushida, ko'tarinki kayfiyatda turgan Murod oldida bexosdan yovuzlik timsoli bo'lgan shaytonning paydo bo'lishi, uni to'g'ri yo'ldan qaytarishga urinishi qahramonning diliga biroz tushkunlik, umidsizlik tuyg'ularini soladi. Ammo shu chog'da sahnaga qo'lida kitob va chiroq tutgan farishtamonand Qiz paydo bo'ladi. Ezgulik va ma'rifat nuriga dosh berolmagan shayton qorong'ulik qa'riga sho'ng'ib, yo'q bo'ladi. Pyesa hayotbaxsh, nekbin kayfiyatda yakun topadi. Ushbu asar G'ulom Zafariyning **“Yomon o'g'il”, “Rahimlik shogird”** pyesalari bilan birgalikda bir spektakl shaklida Karl Marks nomli teatr

truppasi tomonidan 1919-yil 4-oktabrda namoyish etilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu asar davlat teatrining bolalarga atalgan birinchi spektakli edi. Bu spektakl ham G'ulom Zafariyning maslakdosh do'stlari bo'lgan Fitrat va Uyg'ur asarlari bilan birga namoyish qilingan.

“Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil 4-oktabr sonida quyidagi bildirishbor:

*O'zbekcha teatru*

*1919-yil 4-o'ktabr, shanba kuni, “Turon” sahnasida Artistlar soyuzi tarafidan sahnaga qo'yilur:*

I. “Tilak” bir pardali ilmiy, axloqiy pyesa. Yozuvchi: G'ulom Zafariy.

II. “Yomon o'g'il”. Rahimli o'g'ilning holin ko'rsatuvchi manzara. Yozuvchi: G'ulom Zafariy.

III. “Rahimli shogird”. Rahimli shogirdni tasvir etuvchi opera holinda manzara. Yozuvchi: G'ulom Zafariy.

IV. *Diklamatsiya. Mashhur shoirimiz Fitrat afandining asarlaridan o'qilur.*

V. *"Fanniy uy". Maqtanchoq johil kishilarning fan to'g'risida anglovlarin ta'sir qiluvchi bir pardali kulgu (komediya). Yozuvchi: Uyg'ur.*

VI. *"Turkiston tabibi" orqasinda qilg'on muolajalarin ko'rsatuvchi bir pardali kulgu (komediya). Yozuvchi: Uyg'ur.*

Yoshlar hayotidan olib yozilgan **"Erk bolalari"** va **"Tuyg'unoy"** deb nomlangan bir pardali musiqali dramalarida G'ulom Zafariy yoshlik, go'zallik va muhabbatni madh etadi. Bu ikki asarda ham sevishgan yosh yigit va qiz, ularning o'rtoqlarining bahor chog'i go'zal bog'da yoshlik va muhabbat sururidan mast bo'lib o'tkazayotgan yorug'onlari ifoda etiladi.

20-yillarning olag'ovurida bu qadar sokin, umidbaxsh asarlarning yaratilishi kishida bir-muncha taajjub uyg'otadi. Buni biz muallifning

o'zi orzu etgan, shu yo'lda kurashgan, ammo yetisha olmagan ozod va farovon jamiyatning romantik tarzda ifoda etilishi deb tushundik.

Mazkur asarlarning kompozitsiyasi bir-biriga o'xshash. **“Erk bolalari”** asarining bosh qahramonlaridan bo'lgan Turg'unning bog'da yori — Oyxonni sog'inib aytgan ashulasi bilan boshlanadi:

*Sayra, bulbul, chaqir mening*

*go'zal yorim, yor-yor,*

*Bir yo'l tushib ko'rsam yuzin,*

*Yo'q armonim, yor-yor.*

*Birov kelur shu tomondan,*

*bir-bir bosib, yor-yor.*

*Har boqishi jon olg'uchi,*

*dil o'ynatib, yor-yor.*

Uzoqdan Oyxonning ashulasi eshitiladi:

*Gul yaproq ochmish mangu bu bog'da,*

*Bulbul chekar oh, qo'nmish butoqda.*



*Buncha bezanmush bul bog'cha desam,  
Sen bor ekansan, Turg'un, bu bog'da.*

Boqqa Oyxon va uning o'rtoqlari ham yetib kelishadi. Asar yakunida lapar, duet, xor va shodlik kuylari ijro etiladi. G'ulom Zafariy iste'dodli shoir sifatida pyesaga go'zal she'riy matnlar tuzgan, xalq kuy va qo'shiqlaridan kiritgan. Ayniqsa, "Tuyg'unoy" dramasidagi Arslon ariyasida G'ulom Zafariyning shoirlik iste'dodi yorqin namoyon bo'lgan:

*Sevgilim, shirin so'zim, mangu labing  
xumoriman,*

*O'ynab-o'ynab jilmayib aytgan so'zing  
xumoriman.*

*Kel, bo'yningdan o'rgulay,  
hasratlashaylik bu kecha,*

*Sevgi o'tin yoqadir bu kecha —  
oydin kecha.*

Dramaturg bu asarlarida avvalgi musiqali dramalaridan bir qadar oldinlab ketgan. Maz-

kur pyesalarni, musiqasiz matnning yo'qligi, kuy, lapar, yalla va xor ashulalarining asar mantiqiga mos ravishda mahorat bilan joylashtirilganiga ko'ra, milliy opera yaratish yo'lidagi ilk izlanishlardan deyish mumkin.

**“Erk bolalari” va “Tuyg'unoy” 1921-yilda “Karl Marks” truppasi tomonidan qo'yilgandan** so'ng bir necha yillar mobaynida barcha shaharlardagi ko'plab sanoei nafisa to'garaklarida o'ynalib keldi. Keyinchalik Qori Yoqubov tashkil etgan etnografik ansamblning asosiy repertuaridan o'rin egalladi. 1923-yili har ikkala inssenirovka o'zbek konsert guruhi tomonidan muallif ishtirokida Moskvada o'tkazilgan qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida namoyish etildi.

**1925-yili Parijda o'tkazilgan butun dunyo dekorativ san'ati ko'rgazmasida Qori Yoqubov va Tamaraxonim tomonidan “Erk bolalari” pyesasi ijro etildi.**

Asarning librettosi fransuz va nemis tillariga tarjima qilinib, bosilib chiqdi. Fransiyadan qaytishda uni Germaniyada ham ko'rsatdilar. Pyesaning sodda dramaturgiyasi, unga jalb etilgan yoqimli va o'ynoqi o'zbek kuylari Ovro'po tomoshabinida san'atimizga qiziqish uyg'otdi<sup>21</sup>.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek dramalardan tashqari, G'ulom Zafariy **“Chintemir botir”**, **“Gulasal”**, **“Buzuqlik armug'oni”**, **“Paxtaxon”**, **“Yangi odam”**, **“Sayil va to'y”** kabi sahna asarlarini ham yaratgan. Ammo bu asarlar o'z vaqtida nashr etilmagani tufayli bizgacha yetib kelmagan.

Shuni ham hisobga olish kerakki, G'ulom Zafariy yaratgan sahna asarlari musiqali drama yaratish yo'lidagi ilk izlanishlar edi. Shuning uchun ham pyesalarda o'ziga xos qusurlar,

---

<sup>21</sup> Bu haqda qarang: Rahmonov M. G'ulom Zafariy dramaturgiyasi va uning sahna tarixi. // O'zbekiston madaniyati. 1966, 8-iyul.

kamchiliklarning bo'lishi tabiiy, albatta. Lekin shunga qaramasdan, bu asarlar o'sha davrda xalq qalbiga yo'l topdi va uning olqishiga, hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi.

**“Halima” dramasi.** G'ulom Zafariy nomining madaniyatimiz tarixidan o'rin olishga sabab bo'lgan asarlardan **eng muhimi** uning **“Halima” dramasidir.** “Halima” o'tgan asrning 20-30-yillari mobaynida respublikamiz sahnalarida ko'p marta qo'yiladi. “Halima” o'zbek adabiyotida yaratilgan birinchi musiqali drama bo'lib, o'z davrida beqiyos darajada shuhrat qozongan.

Tatar, ozarbayjon va boshqa xalqlarning musiqiy dramalarini ko'rib, ulardan to'la bahramand bo'la olmagan xalqimiz o'zbek tilida ham shunday dramalar yaratilishini orzu qilardi. Bu kuchli ehtiyojni dil-dildan his qilgan G'ulom Zafariy dastlab kichik-kichik sahna asarlari yarata borib, ma'lum darajada mala-

ka hosil qilgach, **1919-yil oxirida “Halima”** dramasi yozib tugatgan. Dramaning sahnaviy hayoti **1920-yil 10-sentabrdan boshlangan.** Pyesa “Turon” truppassi asosida qayta tashkil etilgan **“Karl Marks” truppassida Mannon Uyg‘ur rejissorligida sahnalashtirilgan.** Bu haqda “Ishtirokiyun” gazetasi shunday bildirish beradi: *“Eski shahar “Rohat” bog‘chasida 1920-yil 14-sentabrda, seshanba kuni, o‘zbek sho‘ro astistlari tomonidan besh pardali “Halima” otli opera o‘ynaladi. Yozuvchi: G‘ulom Zafariy. Bu asar yerli turmushdan olib yozilgan fojia-dir. Navolari o‘zbekcha bo‘lg‘oni bilan birga muzika (cholg‘u)da o‘zbek cholg‘ularidir. O‘yin boshlanur soat 7 yarimda...”*

Xuddi ana shu kundan to manfur stalincha tuzum 1937-yilda muallifni qatag‘on qilgunicha “Halima” o‘zbek teatri sahnasida uzluksiz ko‘rsatib kelindi va har safar tomoshabinlar-

ning qalbini hayajonga soldi.

Cho'lponning "Turkiston" gazetasi-ning 1922-yil 16-dekabr sonida "Halima"ga yozgan taqrizida quyidagi so'zlarni o'qiymiz: "11-dekabrda o'zimiz ko'rgan qishliq "Turon" binosida — yuzinchi martaba bo'lsa kerak — "Halima" o'ynaldi... Asarning allanechan-chi martaba qo'yilishiga qaramasdan, xalq to'ladir, joy tegishmaydir"<sup>22</sup>.

O'sha davrda musiqali drama o'rnida ope-ra atamasi qo'llangan. Fitrat ham bu asar-ni "opera" deb atagan. "Bizda opera yo'lida birinchi odimni G'ulom Zafariy qo'ydi" deb yozgan u "Adabiyot qoidalari" kitobida. B.A. Pestovskiy "O'zbek teatri tarixi" maqolasida bunday deydi: "Bu kunda o'zbek operasining asosini solg'uvchi G'ulom Zafariydir".

"Halima"ning yaratilishi va xalq o'rtasida keng shuhrat qozonishida Mannon Uyg'ur

<sup>22</sup> Qalandar (Cho'lpon). Sahnamizda. // Turkiston, 1922, 16-dekabr.

rahbarligidagi “Karl Marks” teatr jamoasining xizmati juda katta bo‘ldi.

Muallif va teatr jamoasining qizg‘in ijodiy hamkorligi natijasida asar voqealari yildan-yilga boyib, musiqa va cholg‘ulari doirasi kengayib borgan. Asar musiqalarini dramaturgning o‘zi tanlagan. Sozandalarni ham G‘ulom Zafariyning o‘zi saralab, o‘zi taklif etgan.

Xullas, muallif va teatr jamoasining tinimsiz izlanishlari natijasida, “Halima” o‘z davri-ning eng mukammal sahna asarlaridan biriga aylangan. Pyesa qayta-qayta sahnaga qo‘yilgan bo‘lsa-da, xalq to‘lib-toshib kelgan, tomoshabinlar asarni zavq bilan, ko‘zyosh to‘kib tomosha qilishgan.

Bu qadar xalq muhabbatiga sazovor bo‘lgan asar o‘zbek teatri tarixida kamdan-kam uchraydigan hodisa edi.

“Halima” xalqning teatrga mehr-muhabbatining ramzi, **Halima roli** esa o‘zbek aktri-

salarining sevimli roli bo'lib qolgan. **Ma'suma Qoriyeva, Tursunoy Saidazimova, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirovalar** ilk bora shu obraz orqali elga tanilganlar. **Ne'mat** rolini ijro etgan **Abror Hidoyatovning mahorati esa alohida tahsinga sazovordir.**

Dastlab Abror Hidoyatov nomli teatr joylashgan binoda 42 yil davomida faoliyat ko'rsatgan **Hamza nomli teatr ushbu binoda ilk pardasini "Halima" musiqali dramasi bilan ochgan.** 1929-yili Qori Yoqubov rahbarligidagi eksperimental-etnografik ansambli asosida Samarqandda tashkil etilgan birinchi o'zbek musiqali teatrining to'ng'ich spektakli ham "Halima" bo'lgan. Uning premyerasi 1929-yil 10-avgustda Samarqandda o'tgan. Spektakl yangi musiqa, kuylar bilan boyitilib, birinchi marta nota asosida o'zbek milliy va simfonik orkestri qo'shiluvida ko'rsatilgan.



“Halima” musiqali dramasi va uning muallifi bu qadar shon-shuhrat sohibi bo‘lishi bilan birgalikda fojiali qismat egasi hamdir. 20-yillar oxiri va 30-yillardan boshlab sho‘ro hokimiyati tomonidan adabiyot va san‘at asarlarini ham batamom o‘z manfaatlariga xizmat qildirish uchun harakat boshlandi. Bu davrda “sinfy hushyor” odamlar “Halima” asari bizga keraklimi? U Sho‘ro siyosati talablariga javob bera oladimi?” qabilidagi savollarni kun tartibiga qo‘ydilar. Albatta, “Halima” sinfiy kurash masalalarini yoritish jihatidan ancha “xom” asar edi. Chunki muallifning o‘zi hali “Sho‘ro voqeligining ahamiyatini to‘la anglab yetolmagan” ijodkorlar sirasidan bo‘lgan.

Fitrat, Cho‘lpon kabi adiblar yuksak qadrlagan, eng asosiysi, xalqning beqiyos muhabbatiga sazovor bo‘lgan asarni endi ayrim tanqidchilar, “...nafrat, kurash hissi... xotin-qizlarni qullikka tushirgan qurilishning ijtimoiy tomiriga

borib urilmaydi”<sup>23</sup>, deb talqin qilishdi. Bunday tuturiqsiz aybnomalar asta-sekin kuchaya bordi va **1937-yilda avjiga yetdi: G‘ulom Zafariy qatag‘onga uchradi, “Halima” esa sahnadan badarg‘a qilindi.**

“Halima” musiqali dramasi o‘z vaqtida nashr qilinmagan. Biz quyida San’atshunoslik instituti hujjatgohida saqlanayotgan va 1926-yili Andijonda qo‘yilgan pyesa nusxasi asosida fikr yuritamiz. Ushbu pyesa to‘rt pardadan iborat bo‘lib, unda o‘ndan ortiq ashulalar — ariya, duet, xor matnlari mavjud. Asar bejiz musiqaga mo‘ljallab yozilmagan. Zero, qahramon ichki dunyosining o‘ta jo‘shqin, his-tuyg‘ularning qalbni yorar darajada junbushga kelgan holatini quruq so‘z bilan tasvirlash mushkul bo‘lib, ularni faqat qo‘shiqlar orqaligina yorqin ifodalash mumkin, xolos.

<sup>23</sup> Said, Ziyov. Halima. // Qizil O‘zbekiston. 1929, 16-avgust.

O'sha davrda e'lon qilingan afisha va taqrizlarda asar "fojia" deb ko'rsatildi. Bu faqat ikki yoshninggina fojiasi emas edi. Xufoot va jaholat keltirib chiqargan turli illat natijasida, shuningdek, ijtimoiy tuzumning noqisligi tufayli o'lkada shaxs erkinligi masalasi achinarli ahvolda bo'lgan. Ayniqsa, ayollar erki, sevgiga asoslangan nikoh masalasi davrning eng ziddiyatli muammolaridan biri bo'lib qolgan. "Halima" dramasida ko'tarilgan g'oya, aslida, barcha jadidlarning ma'naviy ustozi, bu harakatning yo'l boshchisi Ismoil G'asprali tomonidan o'rta tashlangan bo'lib, u maktab va maorif, matbuot va adabiy til masalalarini hal etish bilan birgalikda xotin-qizlarning shar'iy huquqlarini tiklashni ham o'z harakat dasturiga kiritgan. Shariat qonunlari bo'yicha ayollarga ko'plab huquqlar berilgan bo'lsa-da, hayotga joriy qilishda ko'plab nohaqliklar yuz bermoqda edi. Ayniqsa, turmushga chiqayot-

gan xotin-qizlarning xohish-ixtiyorini hisobga olmaslik, hayotda, oilada ayolga past nazar bilan qarash hollari hanuzgacha susaymagan edi. Ismoil G'asprali bu mavzuda talaygina maqolalar yozdi. Jumladan, Turkiston ayollari hayotiga oid "Turkiston xotin-qizlari qay holda yashaydilar?" (1913) nomli maxsus maqola bilan chiqdi. U ayollar huquqining toptalishi haqida yozgan maqolalaridan birida quyidagi misollarni keltiradi: "D" degan shaxs uylanadi. Bir yil, ikki yil yashaydi, so'ng xotinini tashlab, boshqa ayolga uylanadi. So'ng uni ham tashlab, qaygadir borib, yana uylanadi. Avvalgi xotinlariga na ajralish xati, na nafaqa bor, birdaniga ikki-uch xotinni qiynaydi. Bu baxtsiz mazlumalarning oh-u zorlarini hech kimsa eshitmaydi. U "to'ng'iz" esa biladi — shariat qonuni, go'yoki, uning tarafida. Uning roziligini olmasdan xotinlarini undan hech kimsa ajrata olmaydi. Mullaning ham fikri shunday...

Minglarcha ayollarning chekkan zulm va aziyatlari uchun ularning olchoq erlari bilan bir sirada Allohning oldida uning eng bosh, eng asos koʻrsatmasi — adolat buzilganligi uchun bizlar hammamiz javobgardirmiz”<sup>24</sup>.

Bu javobgarlikni teran his qilgan oʻzbek adiblari ham asrimizning birinchi choragida bu mavzuda koʻplab asarlar yaratishgan. Toshkent jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan boʻlgan Gʻulom Zafariyni ham koʻpdan buyon bu muammo bezovta qilar, hayajonga solar edi. “Halima” adib qalbini oʻrtagan, chuqur qaygʻuga choʻmdirgan ana shu oʻy-xayollar hosilasi oʻlaroq dunyoga keldi. Bu asar haqida “Qizil Oʻzbekiston” gazetasining 1925-yil 20-mart sonida “Toʻlqin” imzosi ostida yozilgan taqrizda shunday deyiladi: “Oʻzbek oila turmushi juda ham yomon. Xotin-qizlarimiz bu kunga qadar oʻyinchi-qoʻgʻirchoq qatorida

<sup>24</sup> ЙИЛАДЫЗ. 1990, 5-сон. 100-бет.

*sanalib keldilar va haliyam sanalib kelmoqdalar. Qiz berish, kuyov qilishda ham ixtiyor mutaassib ota-onalar qo'lida bo'ldi. Qiz ixtiyorsiz hayvon qatoridadir...*

*Bu hollar turmushimizda millionlab sanaladir. Bu sanoqsiz dardlarimizning kichkina namunasi "Halima" o'perasidir va unda ko'rsatiladurg'on o'zbek oila turmushidagi qayg'uli hollar, yashashlar, ixtiyorsizliklardir.*

*Bu o'pera turmushimizning eng qayg'uli, fojiali joylaridan olib yozilg'on bir narsa bo'lishi bilan barobar yo'qolib ketmakda bo'lg'on ohanglarimizni bir yerga to'plag'on"*<sup>25</sup>.

"Halima"dan oldin va keyin yaratilgan bir qator asarlar, masalan, Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramasi, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", Cho'lponning "Kecha va kunduz", Oybekning "Qutlug' qon" romanlarida o'zaro o'xshash-

<sup>25</sup> To'lqin. Halima. // Qizil O'zbekiston. 1925, 20-mart.

liklar bor. Bularning barchasida boshqahramonlardan biri bo'lgan bechorahol oiladan chiqqan qizning o'zi kabi kambag'al, pokiza qalbli yigitni sevishi, ammo sevganiga yetolmasdan qari, ammo boy kishiga uzatilishi tasvirlanadi. Bu asarlarda tasvirlangan davr ham deyarli bir xil, ya'ni asrimizning o'ninchi yillari yoki "so'nggi xon zamonlari". Barcha mualliflarning o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga nisbatan chiqargan hukmlari ham bir xil — adolatsiz tuzum. Ikki sevishgan yosh Ne'mat va Halima ana shunday muhitda tug'ilib o'sadilar. Halimaning otasi Muslim o'rtahol do'kondor bo'lib, ishlari yurishmasligi oqibatida ancha qarzdor bo'lib qoladi. Shu orada uning qiziga shaharning eng katta boylaridan Ortiqboy sovchi qo'yadi va qalinga katta pul va'da qiladi. Muslim uchun xonavayron bo'lmaslikning birdan-bir yo'li qizini Ortiqboyga "sotish" bo'lib tuyuladi. Ne'mat esa kambag'al oiladan bo'lib, katta

qalin berishga qurbi yetmaydi. U Halimaning Ortiqboyga uzatilayotganligini eshitib ishq dardida kasal bo'lib qoladi. Ortiqboy raqibini yo'qotish uchun sotqin tabib orqali Ne'matga zahar beradi. To'y kuni Ne'matning o'limini eshitgan Halima ham o'z joniga qasd qiladi. Dramaning qisqacha mazmuni shundan iborat. Lekin asarning asosiy quvvati ikki sevishgan yoshning butun ichki kechinmalari, orzu-armonlari-yu qalb g'alayonlari, visolning totli sururi-yu ayriliqning achchiq faryodi aks etgan qo'shiq va kuylardadir. Dramaturg ularni voqealar rivoji, qahramonlarning kayfiyati, holatlariga qarab juda o'rinli joylashtirgan. Bu muallifning yuksak did, iqtidor egasi ekanligidan darak beradi.

Muallif asosiy qahramonlarning qalb kechinmalarini ochib berish uchun **“Qanchalar”**, **“Iroq”**, **“Omon-omon”**, **“Sayra, bulbul”**, **“Reza”**, **“Ko'chabog'i”**, **“Bayot III”**



kabi xalq ashulalaridan foydalanadi. Garchi dramaga maxsus musiqa yozilmay, xalqning musiqiy merosidan tanlab, saralab kiritilgan bo'lsa-da, asarda hech bir sun'iylik sezilmaydi. Aksincha, qahramonlar xatti-harakati, ashulalar matni va musiqa o'rtasida uzviy mutanosiblik namoyon bo'ladi. "Halima" dramasini yaratar ekan, dramaturg asarning xalqona bo'lishiga, xalq ruhiyati va qiziqish doirasini ochishga e'tiborni qaratadi. O'zbek musiqasi va xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan G'ulom Zafariy xalq ijodining cheksiz ummon, bebaho xazina ekanligini anglab yetadi. Uning 20-yillar atrofida yozilgan o'zbek teatri va musiqasi tarixiga bag'ishlangan maqolalarida madaniy merosimizning juda boy va qadimiyligini, zamonaviy adabiyotimizda undan samarali foydalanish mumkinligini ta'kidlagan edi. Xalq ijodidan bahramandlik dramaturg asarlarining muvaffaqiyatini ta'minlagan omillardan biridir.

Fitrat “Halima” dramasiga bag‘ishlangan taqrizida asarning muvaffaqiyati haqida to‘xtalib: “G‘ulom Zafariyda ko‘broq yozuvchilarimizda topilmag‘on yangi xususiyat bor. G‘ulom milliy kuylarimizni yaxshi biladir”<sup>26</sup> deb yozgan. Darhaqiqat, dramaning matniga singdirib yuborilgan qo‘shiq va kuylarda insonni to‘lqinlantirib yuboradigan maftunkor va sehrli kuch bor. Asar qahramonlari bo‘lgan Ne‘mat va Halimaning qayg‘u va hasratga to‘la ariyalari orqali ular yuragining tub-tubidan otilib chiqqan orzu-armonlari, shu bilan birga, davrning bo‘g‘uvchi muhiti yorqin tasvirlanadi. Dramaning muvaffaqiyatini ta‘minlagan, xalq orasida shuhrat qozonishining omillaridan biri ham mana shundadir.

\* \* \*

<sup>26</sup> Fitrat. “Halima” oferasi. // Ishtirokiyun. 1920, 29-sentabr.



**Milliy teatr tadqiqotchisi.** Turkistondagi Milliy uyg'onish harakatining hosilasi bo'lgan professional o'zbek teatri rivojlanishi bilan teatrshunoslik ham shakllana bordi. Dastlab "Oyina" va "Al-Isloh" kabi jurnallarda **"Teatru bizga kerakmi?"** qabilidagi bahslardan boshlangan ushbu soha bora-bora san'atshunoslikning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Teatrshunoslikning tug'ilishi va shakllanishiga qariyb barcha yetuk o'zbek adiblari o'z hissalarini qo'shdilar.

Milliy teatr san'atining shiddat bilan rivojlanishi teatrshunoslikning ham maydonga kelishini talab qilardi. 20-yillarda o'zbek teatri ma'lum bir mavqega erishdi. Endi u o'zga millat teatrshunoslarining ham e'tiborini o'ziga jalb qila boshladi. O'zbek teatri haqida birinchilardan bo'lib matbuotda o'z fikr-mulohazalarini batafsil bayon qilgan rus teatr tanqidchilaridan biri B.A. Pestovs-

kiy edi. Uning 1922-yil "Inqilob" jurnalining 3-4-sonlarida bosilgan "O'zbek teatri tarixi" maqolasi o'sha davrdagi o'zbek teatri haqidagi tasavvurimizning boyishiga yordam beradi. Muallif mazkur maqolasida ta'kidlashicha, **o'zbek teatrining ilk namoyandalaridan bo'lgan G'ulom Zafariy, Abdulla Badriy, Mannon Uyg'ur, Muhiddin Qoriyoqubov, Abdulhamid Sulaymon Cho'lponlar** bilan yaqin suhbat qurgan, ulardan ko'plab zarur ma'lumotlarni olgan. Pestovskiy o'z maqolasida o'zbek teatrining qisqacha tarixini yoritishga harakat qilgan, o'zbek dramaturglaridan Behbudiy, Nusratulla Qudratulla o'g'li, Fitrat, Abdulla Badriy, Hamza, Uyg'ur, G'ozil Yunus, Cho'lpon, Hoji Muin Shukrullo, Xurshid, Abdulla Avloniy, G'ulom Zafariylar haqida qisqacha biografik ma'lumotlar berib, ular qalamiga mansub dramatik asarlarni ko'rsatib o'tgan. Muallif anchagina

qimmatli ma'lumotlarni berish bilan birgalikda o'zbek va, umuman, Sharq teatri tarixi, ularning shakllanish manbalari haqida birmuncha munozarali fikrlarni bayon qilgan. Chunonchi, "Musulmon teatri boshqalarga nisbatan yaqindagina dunyoga keldi, ayniqsa, o'zbek teatri o'zining 10-yoshini ham yashagan emasdir... ul to'g'ridan-to'g'ri rus teatrining ta'siri ostida o'sdi"<sup>27</sup>, deb yozgan va uning bunday fikrlari ko'plab o'zbek ziyolilarining e'tirozlariga sababchi bo'lgan. Umuman, o'sha davr rus matbuotida faqat teatr sohasigagina emas, umuman, madaniyatimiz tarixiga bepisandlik bilan qarash mayli ustunlik qiladigan maqolalar tez-tez uchrab turardi. O'zbek ziyolilari matbuot orqali imkon darajasida madaniyatimiz tarixini turli kamsitishlardan himoya qilib kelganlar. "Inqilob" jurnalining o'sha yilgi 6-sonida bosilgan "**Ravshan**" imzoli maqo-

<sup>27</sup> Inqilob. 1922, 3-son. 37-bet.

la ham Pestovskiy maqolasiga javob tarzida yozilgan. U Pestovskiyning yuqorida keltirilgan da'volarini keskin rad qilgan. Lekin maqoladagi e'tirozlar o'ta ehtiros bilan yozilgan bo'lsa-da, unda ilmiy dalillar, misollar yetishmaydi. "Bilim o'chog'i" jurnalining 1923-yil 2-3-sonlarida bosilgan G'ulom Zafariyning **"Chig'atoy-o'zbek xalq teatrusi"** maqolasi esa o'zining ilmiyligi, isbot va dalillarga boyligi bilan ajralib turadi. G'ulom Zafariy Turkistonning ko'plab shahar va qishloqlarini kezip, o'zbek madaniyati, xususan, teatr tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan, qo'g'irchoq-voz va qiziqchilar haqida boy materiallar to'plab, xalq og'zaki dramalaridan ba'zilarini yozib olgan edi. "Chig'atoy-o'zbek xalq teatrusi" maqolasi shu materiallar asosida va yuqorida aytib o'tilgan bahslar munosabati bilan yozilgan. Muallifning yozishicha, o'zbeklarda teatr qadimdan mavjud bo'lib, faqat u "hozirgicha

teatru deb atalmay, "tomosha" deb atalib, elning qiziq, o'yinchilari tomonidan sayillarda, to'ylarda, gaplarda va katta yig'inlarda ko'brak ermak (tanqid) yo'li ila, ba'zan o'rnak bo'laturg'on tomoshalar tarzida qo'yulib, kitob holda yozilg'on bo'lmay, o'yinchilar tomonidan tuzulib, yodaki saqlang'on. Shul tomoshalar o'zbeklarning ilgarigi taraqqiysiga ko'b yordam bergan.

Bu o'yinchilar elning kelishmagan ishlarin ermak va o'rnak yo'li ila tuzatishlari ila barobar beklar, xonlarning ham o'rinsiz xatti-harakatlarin o'zlariga ko'rsatib, har chog' ko'zlarin ochib turg'onlar"<sup>28</sup>.

Pestovskiy maqolasida o'zi tan olib aytganidek, o'zbek tilini yaxshi bilmagan. U xalqimizning masxarabozlik, qiziqchilik va boshqa shakllardagi teatri haqida yetarli tasavvurga ega bo'lmagan. Holbuki, Markaziy

<sup>28</sup> Bilim o'chog'i. 1923, 2-3-sonlar, 62-bet.

Osiyo hududida yashovchi xalqlarda qadimdan o'ziga xos teatr mavjud bo'lgan. Uning Ovro'po qabilidagi teatrdan farqi maxsus binoga ega bo'lmaganligi va dramalarning og'zaki shaklda saqlanganligida edi. Bu teatr xalq madaniy taraqqiyotining turli davrlarida turlicha qismatga ega bo'lgan, ba'zan yuksalgan, ba'zan esa unutilayozgan.

Rus, tatar, ozarbayjon teatri an'analari-ning ta'sirini inkor etmagan holda, shuni aytish mumkinki, folklor, ayniqsa, xalq teatrida to'p-langan ijodiy tajribalar yangi usuldagi o'zbek teatrining shakllanishida muhim omillardan biri bo'lgan. Ushbu teatr xalq og'zaki teatri-dan xalqona badiiy til va voqealarni bayon qi-lish usuli, tipiklashtirish va umumlashtirish, so'z, soz va harakat vositasida qahramonlar sargu-zashtlarining sahnaviy ifodasini namoyish etish an'analari o'rgangan. Ilk o'zbek dramaturg-lari o'z pyesalarini yaratishda an'anaviy xalq



teatri ijodiy tajribalari, askiyabozlik, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, masxarabozlik, ertakchilik, dostonchilik, qo'shiqchilik san'atidagi dramaga xos elementlardan keng foydalangan. Xususan, G'ulom Zafariy ijodi ham bunga misol bo'la oladi. U dostonchilik, ertakchilik, qo'shiqchilik va marosim folklori elementlarini o'z asarlari syujetiga mohirona ravishda singdirib yuborgan.

*“Ilgarilari, — deb yozgan G'ulom Zafariy, — qiziq va o'yinchilarg'a el va xonlar tomonidan yaxshi qaralib kelgan... keyingi choqlarda o'yunchilar zo'r mone'lar orqasida el ko'zidan tushayozg'on bo'lsalar ham elning o'yunchilarg'a zo'r rag'bati orqasida shul choqq'acha qiziqqlar debgina soqlanib keldi. Shul qiziqqlarni el o'yunchisi (aktyuri), o'yunchilarin el tomosha (teatru)si deyilsa bo'lur. Negakim, shul choqdog'i qiziqqlarning o'yunlari ilgarigi elning qiziq va o'yunchilari*

*tomonidan tuzulib qoldirilg'on tomoshalardir. Bularning el tomoshasi ekanligiga tayanch qidirib ovora bo'lmasdan qiziqning o'yunlarin bir yo'l ko'rish kifoya qilur.*

*Shundoqki, qiziqlar bir o'yun o'ynamoqchi bo'lg'onda tus o'zgartub, boshqa kiyimlar kiyarlar-da, voqeaga joyni (uy, hovli, bog'ko'chami) kerak bo'lsa, faraziy ko'rsatlar-da, o'ynay berarlar"<sup>29</sup>.*

G'ulom Zafariy teatrni muqaddas ibrat-xona deb bilar edi. Lekin u xalqqa moddiy va ma'naviy zarar yetkazadigan teatr asarlarini ham yo'q deb bilmaydi. Islom dini, uningcha, ana shunday ma'naviyat chegaralaridan chiqqan, xalqni chalg'itadigan va ma'naviy zarar yetkazadigan tomoshalardan qaytaradi.

G'ulom Zafariy o'zbek sahnasiga beadab tomoshalar, behayo qiliq va harakatlarning kirib kelishiga qarshi kurashgan. Xuddi shun-

<sup>29</sup> O'sha manba. 63.-bet.

day tomoshalar o'tmishda xalqning nafratiga duchor bo'lgan. Natijada ho'l-u quruq barobar yonib, ibratli tomoshalarning ham xalq orasidagi obro'yi tushib ketgan. Bundan foydalangan ba'zi bir johil ulamolar har qanday tomoshaning qo'yilishiga qarshi turganlar.

O'tmishda o'zbek teatrining barq urib rivojlanmaganligining sababini G'ulom Zafariy shunday izohlaydi: *"Bori tomosha va o'yunlarning yaxshi yo'lg'a qo'yulmog'onig'a sabab, yuqorida aytilg'onicha, ulamolar bo'lg'on. Islom dinining bo'sh o'yin-kulgulardan qaytarg'onini qurol qilib, tomoshalarning foydali ekanligini tushunmay yoki tushunsalar ham o'zlariga ergashtirmakka qiziqib qaytarishlari zo'r mone' bo'lg'on"*<sup>30</sup>.

G'ulom Zafariy ushbu maqolasida o'zbek xalq teatri ko'p asrlik tarixga ega ekanligini alohida ta'kidlab, uning kelib chiqishi, taraqqi-

<sup>30</sup> O'sha manba. 65-bet.

yot bosqichlari, milliy xususiyatlari va atoqli namoyandalari haqida muxtasar ma'lumotlar bergan hamda maqolaga o'z fikrlarining isboti sifatida xalq qiziqchilari og'zidan yozib olgan **“Maqtanchoq kishi”**, **“Er va xotin”** og'zaki dramalarining matnini ham ilova qilgan.

G'ulom Zafariy ushbu dalillari asosida quyidagi xulosaga kelgan:

*“...Tomosha (teatru)lar to'g'risida ovropolilarning “o'zbeklar bizdan ko'rib bildilar” degan da'volari o'z-o'zidan yo'qq'a chiqsa ham, qo'g'irchoq o'yini Sharqqa Ovropodan XV asrdan boshlab o'tdi degan da'vosiga javob berishga kuchim yetmaydur. Bu yo'l to'g'risida biluvchi kishilar bo'lsa, matbuotda yozib ko'rsatmaklarini o'tunar edim”<sup>31</sup>.*

G'ulom Zafariyning “Chig'atoy-o'zbek xalq teatrusi” maqolasi madaniyatimiz tarixini o'rganishga katta hissa bo'lib qo'shilgan. U

<sup>31</sup> O'sha manba. 65-bet.

o'sha davrdagi "o'zbeklar madaniyatni, jumladan, teatrni ruslardan o'rgandi" qabilidagi noto'g'ri qarashlarga jiddiy zarba bergan.

G'ulom Zafariy Turkistonda paydo bo'lgan Ovro'po tipidagi yangi teatr haqida ham maxsus maqola yozadi. **Ushbu maqola "O'zbek teatri tarixi" sarlavhasi ostida 1924-yili "O'zgarishchi yoshlar" jurnali-ning ikkinchi sonida e'lon qilingan.** Maqolada zamonaviy teatrning paydo bo'lishi va shakllanish omillari, uchragan to'siqlari haqida so'z yuritiladi. Bunda G'ulom Zafariy, asosan, Toshkentdagi teatrchilik harakati va "Turon" truppasi faoliyati asosida mulohaza yuritadi. Uning fikricha, yangi tipdagi teatrning paydo bo'lishi o'zbek teatri taraqqiyotida yangi davr ochgan. Yangi tipdagi teatrning paydo bo'lishida rus, tatar, ozarbayjon teatrlari ta'sir ko'rsatdilar. Ayniqsa, ozarbayjon teatrining ta'siri kuchli bo'ldi. Ozarbayjonlik rejissorlar

yangi o'zbek teatrining oyoqqa turib olishida ancha ko'maklashganlar. Yangi tipdagi teatrning shakllanishi va rivojlanishida taraqqiyparvar o'zbek yoshlari o'ta fidoyilik ko'rsatganlar. Chor ma'murlari va mutaassib kimsalar ularga qarshi turli fitnalar uyushtirganlar, ularni "padarkushlar" deb ataganlar, ammo taraqqiyparvar yoshlar o'z yo'llaridan bir qadam ham chekinmaganlar. Natijada, o'zbek teatri qisqa muddatda muayyan badiiy yuksaklikka erishgan. Uning bu mavqega erishishiga G'ulom Zafariy ham baholi qudrat o'z hissasini qo'shgan.

**MUSIQASHUNOSLIK FAOLIYATI.** G'ulom Zafariy milliy musiqamiz, umuman, Sharq musiqasining bilimdoni bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, 20-yillar rus matbuotida uning nomi "**kompozitor G'ulom Zafariy**" tarzida yozilar edi. U butun borlig'i bilan musiqaga ixlos qo'ygandi. Shu tufayli, uning deyarli barcha dramalari

hamda dostonlariga kuy va qo'shiqlar singdirib yuborilgan. Musiqa va teatrni uyg'unlashtirish tilagi unda ijodining ilk davrida, ya'ni o'tgan asrning 10-yillaridayoq paydo bo'lgan edi. U dastlab kichik-kichik sahna asarlari yarata borib, 1920-yilda mashhur "Halima" musiqali dramasini yaratishga muvaffaq bo'ldi va haqli ravishda o'zbek musiqali dramasing asoschisi degan ulug' nomni qozondi. Ushbu asar G'ulom Zafariyni mohir bastakor sifatida ham elga tanitgan. Bu haqda **Cho'lpon** shunday yozgan: *"Halima" ko'p qo'yilishida hamma pyesalardan ortiq turadi. O'zining yoqimli kuylari bilan xalqni qanchalik maftun qilgan bo'lsa, shuhrati bilan ham G'ulom Zafariyga rus matbuotida "o'zbek bastakori" (kompozitor) nomi berildi*<sup>32</sup>. Haqiqatan, rus teatrshunosi B. A. Pestovskiy ham "O'zbek

<sup>32</sup> Cho'lpon. O'zbek Davlat truppasi Farg'onada. Repertuar xususida. // Yangi Farg'ona. 1928, 31-iyul.

teatri tarixi” maqolasida uni “kompozitor G‘ulom Zafariy” deb atagan. O‘zbekistonda yashab ijod etgan rus musiqashunoslari G‘ulom Zafariyning noyob iste’dodini qadrlab, unga yuqori baho berganlar. Shulardan biri, V.A. Uspenskiyning moskvalik do‘sti V.M. Belyayevga yozgan maktubida shunday satrlar bor: *“Samarqandda G‘ulom Zafariy bilan uchrashdim — senga uning manzilini yozib ko‘rsataman: Samarqand, Kitoblar palatasi — unga. U bilan bog‘lanishingni chin dildan maslahat beraman, musiqa haqida u juda ko‘p narsalarni biladi, eng asosiysi, ixtiyorida juda nodir kitoblar bo‘lib, shularning orasida musiqa haqida yozilganlari ham bor. Unga sen haqingda gapirib berdim, mana u ingliz gazetasiga sening buyurtmang bo‘yicha Samarqand musiqa va teatri muhiti haqida yozib yuborishi mumkin”*<sup>33</sup>.

<sup>33</sup> Успенский В.А. Научное наследие. Воспоминания современников. Композиторское творчество. Письма. — Т., 1980. — стр. 306.





Uspenskiy bu maktubida mubolag'a qilmagan edi. Chindan ham, G'ulom Zafariy musiqa haqida teran bilimga ega bo'lgan. U chuqur ilmiy tadqiqotlar asosida o'zbek milliy hofizlik maktabi shajarasini tuzib chiqqan, fors, hind, umuman, Sharq kuy va cholg'ularini mukammal bilgan. Uning 1922-yil "Inqilob" jurnalida e'lon qilingan "**Sharq kuylari va cholg'ulari**" maqolasini o'qigan kishi bunga amin bo'ladi.

Sharqda musiqa insonni Ilohiyotga yaqinlashtiruvchi mo'jiza deb qaralgan. Shuningdek, tabiat va inson ruhining uyg'unligiga ham katta e'tibor berilgan. Har bir musiqa yil fasllari, oy va kunning vaqtlariga qarab ijod qilingan va ijro etilgan. Tabiatdagi o'zgarishlarning inson ruhiyatiga ta'sir etishi fanda allaqachon isbot etilgan. Chunonchi, bulutli, yomg'irli kun kishida allaqanday hazin, ma'yus kayfiyat hosil qiladi va, aksincha, quyoshli, ochiq kun-

lar, ayniqsa, bahor faslida ko'tarinki kayfiyat uyg'otadi. Musiqa mana shu kayfiyati holni kuchaytiruvchi, o'tkirlashtiruvchi vositadir.

G'ulom Zafariy yuqorida tilga olingan maqolasida buni alohida ta'kidlab o'tadi: "*Sharq cholg'usining cholg'u tonuvchilari shundoq usto yasabiladilarkim, bir kecha-kunduzni o'n ikkiga bo'lib, har bir bo'limni tabiatni o'zgaruviga qarab bir ta'sir ostida hisoblab va shunga to'g'irlab biror kuy yasaydilar, o'n ikki bo'limda o'n ikki kuydirkim: 1. Rahoviy...*"<sup>34</sup>

O'zi yaratgan har bir narsaning andazasini tabiatdan oladigan buyuk Sharq ilohiy ne'mat bo'lgan musiqada ham jahoniy uyg'unlik buzilmasligini hisobga olgan. "*Turkistonda ham har bir kuyni cholmoq uchun, o'qimoq uchun vaqt va kiyim belgilanadur*", — deb yozadi G'ulom Zafariy. Rus bastakori V.A.

<sup>34</sup> Inqilob. 1922, 3-son. 39-bet.



Uspenskiy Sharq musiqasidagi bu qadar uyg'unlikdan hayratga tushib shunday yozgan edi: "O'zbek shoiri G'ulom Zafariy menga shunday ma'lumot berdi: "Dugoh" ertalab soat o'ngacha, "Bayot" o'ndan o'n ikkigacha, "Chorgoh" birdan oltigacha, "Segoh" kechqurun, "Shahnoz" yarim kechada, "Nasrulloji" kechasi soat o'n ikkidan ertalabki oltilargacha ijro etilarkan. Bu — Turkiston maqomlari, ehtimol, Buxoroda ham maqomlarni ijro etish vaqt bilan bog'liq bo'lsa kerak... Menga ko'p marotaba aytishdiki, "Navo" kasallikni davolashda, odatda, kechqurun ijro etilar ekan"<sup>35</sup>.

Ko'rinadiki, Sharqda ba'zi bir ruhiy xastaliklarni ham davolashda musiqadan foydalanilgan. Bundan tashqari, musiqa turli hayot tashvishlari oqibatida inson ruhi va qalbi-ni qoplagan kir-g'uborlarni yuvib, tozartiradi, unga ma'naviy kuch bag'ishlaydi.

<sup>35</sup> V.A. Uspenskiy. V.Belyaevga. 6/X. 1927.

Musiqa ashula va raqsga mo'ljallanganligiga qarab ham bir necha turga bo'lingan: *"Turkiston kuylarining har birisi uch bo'limga bo'linur. 1. O'qib chalinmoq bo'limi, o'qimoq yo'li. 2. O'qimay chalinaturg'on bo'limi: "Mushkulot". 3. O'yin bo'limi — "Ufor". Har bir bo'lim bir necha kuydan iborat bo'lib, o'qish yo'li (ashula aytish) to'rt kuydir..."*<sup>36</sup>.

Maqolada G'ulom Zafariy ikki yuzga yaqin Sharq kuylarini nomma-nom sanab ko'rsatadi, ularni turkumlarga ajratib, o'ziga xos xususiyatlari, usullari haqida to'xtaladi. Bu qadar teran bilimga u zahmatli mehnati evaziga erishgan edi. G'ulom Zafariy musiqa nazariyasi va tarixiga oid juda qadimiy va noyob qo'lyozma manbalar bilan tanishgan, Turkistonning ko'plab shahar va qishloqlarini kezib, ko'plab kuy va qo'shiqlar yig'ib, o'rganib chiqqan edi.

<sup>36</sup> Inqilob. 1922, 3-son. 39-bet.

G'ulom Zafariyni xalqimizning boy ma'naviy merosi namunalari bo'lgan kuy va cholg'ularning unutilib, yo'qolib borayotganligi juda tashvishga solgan. Shuning uchun u ko'plab sahna asarlariga mumtoz va xalq kuy-laridan namunalar kiritgan, ularga qaytadan jon bag'ishlashga harakat qilgan. Masalan, bir pardali kichik sahna asarlari bo'lgan "Bahor"-da "Sayra bulbul", "Bahor", "Munojot", "Savt", "Tarona", "Gunafsha" pyesasi-da "Reza", "Ufor", "To'sqinchilik" da "Layli", "Andijon boray dedim", "Qash-qarcha", "Yallama yorim" kabi kuylardan foydalangan. Dramaturg birgina "Halima" musiqali dramasida o'ndan ortiq kuylardan istifoda qilgan. Cho'lponning "Uvaysiy" deb nomlangan maqolasidan olingan quyidagi parcha fikrimizni yanada to'ldiradi: *"Klassik maqomlar orasida ko'pchilik ichiga eng ko'p yoyilgani, shubhasiz, "Iroq" kuyidir. Uni*

*Buxoroning shashmaqomchi hofizlari ko'p aytar edilar. To'ychi aka va uning jo'ralari ham uni boshqacha qilib ishlab omma orasiga yoydilar. U sahnamizda, eng avval, "Halima" vositasi bilan jarangladi. "Halima"ning dastlabki variantida "Iroq" kuyi yo'q edi. Keyincha pyesani bir qadar ishlashga to'g'ri kelgan vaqtda Halima (qiz)ning ariyasi bo'lib sahnaga chiqdi. "Halima" pyesasi-da uni marhum Tursunoy, so'ngra Halima Nosir qizi, Naziraoy va boshqalar aytdilar. Ko'pchilik yoqtirdi va u tom ma'nosi bilan grajdanlik qozondi"*<sup>37</sup>.

O'zbek xalqida qadimiy to'y va ma'rakalar, bayram va sayillar kuy-qo'shiqlarsiz o'tmagan. Baxshilar, oqinlar, xonanda-yu sozandalarga el katta hurmat ko'rsatgan. Bundan tashqari, xalqimizda ommaviy ravishda ijro etiladigan kuy va qo'shiqlar ham oz emas.

<sup>37</sup> Cho'lpon. Uvaysiy. // Yorqin turmush. 1936, 4-5-qo'shma soni.

G'ulom Zafariy mazkur maqolasida shunday yozadi: *"Bu kuylardan boshqa o'zbekning o'z ruhi, o'z yuragidagi yil sayin turluk tuyg'ular ta'siri bilan chiqorilib turgan kuylar juda ko'pdir. Bunday kuylarni Sirdaryo oblastida "terma", Farg'onada "reza" deb ataydilar. Bundan boshqa "yor-yor", o'lan, lapar, alyor degan kuylar ham bordirkim, xalq o'rtasida bir-birlariga qarshi kuylanurlar. Shundoqki, "Yor-yor", "O'lan" to'ylarda yigitlar bilan qizlar orasida bir-birlariga qarshi kuylanur. "Lapar" dalada o'ynab yurgan choqda, "Alyor" esa mayxo'rlik bazmiga xos kuydir. Taassufki, bunday kuylar kundan-kunga unutilib bormoqdalar"*<sup>38</sup>.

G'ulom Zafariy maqolada o'sha davrda iste'molda bo'lgan hamda yo'qolib borayotgan Sharq cholg'ularidan yigirmatachasini sanab ko'rsatadi. Ba'zi bir cholg'u asboblarning

<sup>38</sup> Inqilob. 1922, 3-son, 41-bet.

unutilib borayotganligi uni iztirobga soladi. Uning maqolani yozishdan murodi ham ushbu muammoga keng jamoatchilik e'tiborini qarata-tish, yo'qolib borayotgan ma'naviyat durdo-nalarini imkon darajasida saqlab qolishga da'vat qilish edi.

U turli cholg'u asboblarning tarixi, taqdiri, tarqalgan joylari haqida ham to'xtalib o'ta-di: *"Cholg'uchilar qurollariga kelganda, ba'zi ellar orasida ijod etilib, mujdalarga xos bo'lg'ondir. Tanbur Turkistonga, rubob Afg'onistonga, sato Hind bilan Eronga, ud Misr bilan Turkiyaga xos, lekin bu cholg'u asboblari butun Sharqda barobar ishlatib ke-lingandir. O'zimizning chig'atoy adabiyoti-da qo'buz, chang, g'ijjak, nay, rubob, ba-labon degan narsalar ko'riladur. Ma'lum bir kuylarda chang, g'ijjak, nay, tanbur, dutor, Turkistonda iste'molda. Qo'buz Farg'ona*



*qishloqlarida, rubob Buxoroda o'lim holida yotadir*"<sup>39</sup>.

G'ulom Zafariyni qiynagan muammolar-dan yana biri sho'ro hukumati va uning tar-biyasini olgan ba'zi bir kaltabin kimsalarning madaniy merosga munosabati masalasi edi. Ular Oktabr to'ntarishigacha bo'lgan madaniy merosdan, jumladan, musiqadan butunlay voz kechib, yangi proletar madaniyatini yaratish kerak deb da'vo qiladilar. Ularning fikricha, Oktabr to'ntarishigacha yaratilgan san'at asar-lari faqat zodagonlarga xizmat qilgan, xalqqa yot va tushunarsiz bo'lgan.

Davrning eng ilg'or ziyolilari madaniy me-rosning butkul inkor etilishiga qarshi chiqdilar, ming yillik ma'naviyatdan voz kechish onadan yuz o'girishdek kechirib bo'lmas gunoh ekan-ligini ta'kidladilar. Fitrat bu davrda "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" (1926) ki-

<sup>39</sup> Inqilob. 1922, 3-son, 41-bet.



tobini yozdi, "Alanga" jurnalining 1928-yil 2-sonida "O'zbek musiqasi to'g'risida" maqolasini e'lon qildi.

Fitrat o'zbek musiqasiga shunday ta'rif beradi: *"Bir musiqaki, yolg'iz o'zining klassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan, bir musiqaki, bu kun o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir, bir musiqaki, uning tekshirishga loyiq o'z nazariyasi, usuli bor, uni maqtag'onlar to'g'ri so'ylaylar"*.

G'ulom Zafariy ham kaltabin kimsalarining noto'g'ri qarashlariga qarshi **"O'zbek musiqasi to'g'risida"**, **"Musiq muammo-si"** kabi maqolalarini e'lon qiladi. Muallif "O'zbek musiqasi to'g'risida" maqolasida quyidagilarni yozadi: *"Zamonamiz yangi turmush qurish davri bo'lib, ko'plar turli narsalarni yangi turmushga birga olib kirish to'g'risida fikr yurita boshladilar, jumladan, musiqa haqidagi o'z mulohazalarini katta yig'inlarda, hatto matbuotda aytdilar. Shun-*

dayki, yangi turmush istaklariga musiqa-miz javob bera olmagan barobarida musiqa o'zbekning o'z musiqasi bo'lmay, Arab, Eron va Hinddan kelib kirgan yot va ruhi tushunarsiz eng eski musiqa, biz bundan hozirgi zamon istagiga loyiq javob ololmaymiz deb ... bu musiqa o'zbekniki emas, shunga ko'ra, yangi o'zbek musiqasi yaratish kerak yoki Ovro'po musiqasiga ko'chish kerak deguvchilar bo'ldi va bo'lmoqda. Men mana shularga javob uchun shu maqolani taqdim etaman".

Maqoladan G'ulom Zafariyning nuqtadon musiqashunos, xalq tarixining bilimdoni ekanligi yana bir bor namoyon bo'ladi. U o'zbek mumtoz musiqasining uzoq asrlarga kirib boruvchi teran ildizlarga egaligi, o'zbek xalqi ma'naviy dunyosining ajralmas bo'lagi bo'lib qolganligini ta'kidlab o'tadi: "O'zbek musiqasi umumsharq musiqasi ila bab-barobardir, keng o'rin olg'on musiqadir. O'zbekda eskidan beri ma'lum musiqa bo'lg'on".

G'ulom Zafariy o'z fikrlarining isboti sifatida inkor etib bo'lmaz dalil va hujjatlarni keltiradi. U mumtoz musiqamizning o'lmas durdonalari bo'lgan maqom va maqom sho'balari, ularning yurtimizning qaysi shaharlarida keng tarqalganligini ham keng sharhlab beradi. Maqola so'ngida G'ulom Zafariy o'zbek xalqining boy musiqiy merosini to'la o'rganib va shunga suyanib, shuningdek, zarur o'rinlarda Ovro'po musiqa nazariyasi va usullaridan foydalanib yangi o'zbek musiqasini rivojlantirish kerak degan xulosaga keladi.

1928-yil mart oyida Samarqandda O'zbekiston Maorif komissarligi qoshidagi Ilmiy sho'ro qaramog'ida **O'zbekiston musiqa ilmiy tekshirish instituti** ochildi. Bu institutga respublikadagi eng iste'dodli musiqashunoslardan A.Fitrat, N.N.Mironov, V.A.Uspenskiy va boshqalar jalb qilindi. **G'ulom Zafariy ham shu institutda o'quv bo'limi mudiri lavozimida faoliyat ko'rsata boshladi.** "Musiqa muammosi"

maqolasida G'ulom Zafariy mazkur institutning ochilishidan maqsad va vazifalar bo'yicha quyidagilarni ko'rsatadi: *"Mana bu institut ham boshlab buyuk o'zbek klassik va xalq kuylarini, raqslarini ilmiy tekshirish, ularni talabalarga o'rgatish, etnografiya yo'li bilan maqom va xalq kuylarini notag'a zabt etish va ponog'rafg'a o'tkazib saqlash yo'lini tutdi"*<sup>40</sup>.

G'ulom Zafariy ommani institutda qilinayotgan ishlar va qilinishi lozim bo'lgan vazifalar bilan tanishtiribgina qolmay, institut jamoasining keng ko'lamda faoliyat ko'rsatishi uchun to'siq bo'layotgan ba'zi bir muammolarni hal qilish talabini rasmiy idoralar oldiga ham qo'yadi. Shuningdek, u notani yaxshi biluvchi milliy kompozitorlar yetishmasligi, o'zbek mumtoz musiqasini notalarga yozib olinmagani tufayli ularning yo'qolib ketishidan xavfsirab, ularni saqlab qolish yo'llarini qidiradi, nota

<sup>40</sup> Qizil O'zbekiston. 1930, 21-mart.

yoʻzadigan kompozitorlar yetishib chiqquncha fonograf va magnitofon orqali oʻzbek klassik kuylarini yoʻzdirib olishni tavsiya qiladi.

Gʻulom Zafariyning musiqashunos sifatidagi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelamiz:

U musiqa va teatrni uygʻunlashtirish uchun qizgʻin faoliyat olib bordi va, buning natijasi oʻlaroq, oʻzbek adabiyotida musiqali drama janriga asos soldi, oʻzbek musiqali drama teatrining tashkil etilishida jonbozlik koʻrsatdi. U milliy musiqamiz fidoyisi sifatida Turkistonning koʻplab shahar va qishloqlarini kezib, xalq kuy va qoʻshiqlarini toʻplab, nashr etdi.

Gʻulom Zafariy oʻzbek xalqi va, umuman, Sharq xalqlarining juda qadimiy musiqiy merosga ega ekanligini ishonarli dalil va hujjatlar orqali koʻrsatib berdi va keng targʻib qildi. Unutilib borayotgan milliy musiqamiz namunalarini, cholgʻu asboblarini saqlab qolishga keng jamoatchilik eʼtiborini qaratdi. Milliy

musiqamizni turli yot qarashlardan, haqorat va kamsitishlardan himoya qildi. Respublikamizning ko'plab shaharlarida musiqa bilim yurtlarining ochilishida jonbozlik ko'rsatdi va yoshlarga milliy musiqadan saboq berdi.

### **FOLKLORSHUNOS SIFATIDA.**

O'zbek xalqi juda boy ma'naviy xazinaga ega. Necha ming yillardan beri asrlardan-asrlarga, avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgan ma'naviyatimiz durdonalari bugungi kunda ayricha ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz qaytadan qad rostlamoqda.

Zamonlar bo'ldiki, milliy qadriyatlarimiz poymol qilindi, qadimiy qo'lyozmalar, noyob kitoblar o'tda yoqildi, millatparvar insonlar qatag'on qilindi. Shu yo'l bilan millat ruhini so'ndirib, o'zligidan kechdirmoqqa, unga "Ovro'po madaniyati"ni singdirmoqqa urindilar. Ammo ne-ne qatag'onlar, ne-ne qironlar

bo'lmasin xalqimiz o'zligini butun saqlab qola oldi.

Chunki uning ma'naviyati ulug' edi. Xalq og'zaki ijodi ana shu ma'naviyatning ko'rinishlaridan biridir. Xalq o'zi yaratgan tafakkur durdonalarini og'izdan og'izga, qalbdan-qalbga ko'chirib muqaddas gavhardek asrab keladi. Bu asarlarda xalq o'zining hayotini, eng noyob tuyg'ularini, g'ururini, qadriyatlarini ifoda etadi, o'z tarixidan, madaniyati ruhiyatidan xabardor qilib, yuksak fazilatlarni madh etadi. Shuning uchun xalq ijodi bitmas-tuganmas xazina, tengi yo'q boyligimiz hisoblanadi. Har bir yozuvchi yoki shoirning ijodkor sifatida shakllanishi va kamol topishida boshqa adabiy an'analar bilan bir qatorda xalq og'zaki ijodining ham muayyan darajada o'rni bo'ladi. Bu ijodkorning qay darajada xalq hayoti bilan yaqinligiga bog'liq. **G'ulom Zafariy ijodida xalq hayoti bilan chambarchas bog'liqlik, uning**



**boy ma'naviy merosidan bahramandlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi.** Uning deyarli barcha asarlarida mumtoz adabiyotimiz hamda xalq og'zaki ijodiga murojaat qilingan, ulardan ijodiy ravishda foydalanilgan. Adib xalqimiz hayoti, urf-odatlarini, xarakteri, milliy psixologiyamizning o'ziga xos xususiyatlarini teran o'rganib, ularni o'z asarlarida aks ettirishga harakat qilgan. Bu esa uning asarlarining yanada xalqchil va jozibali chiqishiga yordam bergan.

1919-yili Turkiston o'lka musulmon byurosi turkiy xalqlar merosini to'plab, o'rganib, nashr etishishlarini yo'lga qo'yish haqida qaror qabul qildi. Ko'lamlil bu tadqiqot va nashr ishlarini boshqarish uchun Nazir To'raqulov (rais), Fitrat (rais muovini) va Laziz Azizoda (kotib)dan iborat boshqaruv hay'ati belgilandi. Bu keng qamrovli ishga o'z hissasini qo'shish uchun **G'ulom Zafariy juda zo'r**

ishtiyoq bilan kirishadi. U Turkistonning juda ko'p shahar va qishloqlarida bo'ldi hamda folklor namunalari — ertak, qo'shiq, doston va boshqa janrlarga oid asarlarni yozib oladi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysidan, Termiz va uning atroflaridan ko'pgina rang-barang materiallar to'pladi. To'plangan materiallardan bir qismini **Mashriq Yunusov (Elbek) bilan birgalikda "El ashulalari" nomi ostida 1925-yili nashr etishadi.** Unda turli joylarda tarqalgan xalq qo'shiqlari va termalaridan namunalar berilgan bo'lib, har birining yaratilish tarixi, tarqalgan joylari ko'rsatilgan. To'plamdagi qo'shiqlar mavzu jihatidan xilma-xil bo'lsa-da, ularning asosiy qismini lirik qo'shiqlar tashkil etadi. Bu qo'shiqlarda xalqning sodda va samimiy, beg'ubor tuyg'ulari aks etgan. Muhabbat madhi, visol sururi, ayriliq azoblari, suyuqlik ta'rif va tavsifi to'plamdagi qo'shiqlarning

yetakchi mavzularidandir. Shularning orasida Vatanga muhabbat, uning ko'rkam bog'lari, ulug'vor tog'lari, yoqimli havosi, jo'shqin daryolari madh etilgan qo'shiqlar o'ziga xos o'rin tutadi. Xalqning buyuk ijodkorligi mahsuli bo'lgan ushbu qo'shiqlarda zarracha bo'lsin soxtalik sezilmaydi, unda faqat o'zi kechirgan tuyg'ularnigina ifoda etadi.

“Vatan qadri musofirchilikda bilinadi”, deydi dono xalqimiz. Bu ming yillar davomida orttirilgan tajriba, anglangan haqiqat iqroridir:

*Qarg'alar uchsa qaraylik Marg'ilonning  
yo'liga,*

*Hidi kelsa, mast bo'laylik handalakning  
bo'yiga.*

*Handalak bo'ylikkinam, sen unda zor,  
men bunda zor,*

*Ikkalamiz to'tiqushning bolasidek  
intizor...*

*Intizorlik torta-torta, tanda toqat qolmadi,*

*Yo'lchibindek sarg'ayib, ucharga holat  
qolmadi.*

Yor va diyor sog'inchini ifoda etgan bundan ham go'zalroq qo'shiq bormi dunyoda?! Bunda yoridan, yurtidan ayrilgan necha-necha insonlarning oh-u nolalari, qalb fig'onlari aks etgan.

To'plamdagi xalq og'zaki ijodi namunalari orasida yurt tarixida ro'y bergan biror jiddiy voqeaga bag'ishlangan tarixiy qo'shiqlar ham bor. Masalan, **"Saidahmad"** qo'shig'i Marg'ilonda yaratilgan bo'lib, xalqni larzaga solgan, ba'zi joylarda isyonlarga sabab bo'lgan 1916-yildagi mardikor olish voqeasiga bag'ishlangan. Bu qo'shiq xalqning mahalliy ma'murlarga va oqposhshoga nisbatan qahr-g'azabini yorqin ifoda etadi:

*Saidahmad, toming baland,  
Tomingdan ham noming baland.*

*Yigitlarga qo'l qo'ygan  
Padaringga ming la'nat...*

Bu qo'shiq xalqning o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumga, mustamlakachilik siyosatiga bildirgan o'ziga xos noroziligidir. Qo'shiq ruhidan xalqning Milliy uyg'onish jarayonini boshidan kechirayotganligi, sabr kosasi to'lib borayotganligi yaqqol sezilib turibdi. 1918-yilda Turkiston Muxtoriyati uchun, Vatan mustaqilligi yo'lida shahid bo'lgan yurtdoshlarimiz haqida kuylangan **“Omon-omon”** qo'shig'i orqali biz xalqimizning ozodlikka naqadar tashna bo'lganligini, erk uchun mingta joni bo'lsa, barini qurbon qilishga rozi bo'lganligining guvohi bo'lamiz.

*Bu tog'lar baland tog'lar,  
G'arib yo'lini bog'lar.  
Bu tog'larda kim yotg'on,  
Askar bolalar yotg'on.  
Yonboshig'a tosh botg'on,*

*omon-omon,  
Ohi xudog'a yoqg'on.*

*Asakaning yo'lida  
Ilon ko'rdim cho'lida,  
Ming jon bo'lsa beramiz  
Yurtimizning yo'lida.*

Yurt taqdirida keskin o'zgarishlarga, turli alg'ov-dalg'ovlarga to'la bo'lgan XX asrning 10-yillarida yaratilgan bu qo'shiqlar xalqimizning o'sha davrdagi ruhiy dunyosini, tafakkur tarzini yanada teranroq o'rganishimizga yordam beradi. Shu bilan birgalikda bu qo'shiqlar orqali biz bobolarimizning yurt mustaqilligi yo'lida muborak qonlarini, aziz jonlarini nisor etganligi, ozodlik uchun tinimsiz kurasholib borganligiga guvoh bo'lamiz.

To'plamdan **“Begijon ukam”**, **“Ajab yorlarim”**, **“Andijon boray, dedim”**, **“Lipimish”**, **“Aylanaman, yorlarim”** **“Yal-**

lama yorim”, “Rabbano, doding‘a yet”, “Oh, mening shohim”, “G‘ayra-g‘ayra”, “Yoring bo‘lsa”, “O‘rtoq”, “Omon yor”, “Ufor”, “Gulyor”, “Do‘st-do‘st”, “Alomon”, “Alla-alla, yor, alla”, “Qashqarcha”, “Chiroylik”, “Xon o‘yini”, “Qani-qani”, “Gul o‘yin”, “Qizil gul”, “Chamanda gul”, “Bodomqovoq”, “Olmacha-anoringga balli”, “Hoy, bola-bola”, “Hoy, mening yorimsan”, “Yalla”, “Yor” va boshqa ko‘plab ishqiy-lirik qo‘shiqlar o‘rin olgan. Ushbu qo‘shiqlarda xalqona donishmandlik va soddalik qorishib ketgan. Ba‘zi qo‘shiqlar mazmun jihatidan o‘ta sayoz tuyulsa-da, xalq hayotining turfa ko‘rinishlari, shu jumladan, salbiy tomonlari ham haqqoniy yoritilganligi bilan ahamiyatlidir. Xalq qo‘shiqlarining eng kuchli jihatlaridan biri uning ohangdorligidir. Unda har bir qo‘shiqning so‘zlari o‘z ohangi bilan birga yaratilgan, uni boshqacha kuylash mumkin emas:

*Qop-qoradir, qop-qoradir  
yorginamning ko'zlari,*

*Mavj uradir, mavj uradir  
yorginamning so'zlari.*

*Yod ayladim doim seni*

*har kunda chandon, nozanin*

*Hargiz sog'inmading meni  
shirin zabonim, nozanin!*

Xalq qo'shiqlarini o'rganish G'ulom Zafariy ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi va uning asarlarining xalq orasida mashhur bo'lishiga sababchi bo'ldi. Uning ko'pgina doston va dramalariga xalq qo'shiqlaridan namunalar kiritilgan.

G'ulom Zafariyning xalq qo'shiqlarini to'plab nashr etishi katta ahamiyatga ega edi. Chunki xalq qo'shiqlari xalq qalbining suratlaridir. Biz bu qo'shiqlar orqali o'sha davrda xalq qalbida kechgan his-tuyg'ular, o'y-kechinmalar, uning dunyoqarashi, ma'naviy dun-



yosi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Mabodo bu qo'shiqlar o'z davrida yozib olinmaganida, ularning ko'pchiligi xalq hayotidagi turli o'zgarishlar, siyosiy-iqtisodiy bo'hronlar oqibatida yo'qolib ketishi ehtimoldan xoli emas edi.

G'ulom Zafariy to'plagan xalq og'zaki ijodi namunalari orasida og'zaki dramalar ham bor bo'lib, shulardan bizga tanish bo'lganlari "Maqtanchoq kishi" va "Er va xotun" dramalaridir. Bu asarlarni u "Chig'atoy-o'zbek xalq teatrusi" maqolasiga ilova tarzida e'lon qilgan edi. Ko'pchilik xalq dramalari singari bu asarlar ham satirik ruhda yaratilgan bo'lsa-da, ulardan birining, ya'ni "Er va xotun" dramasining boshqa dramalardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyati bor. Ushbu asar shu vaqtgacha ma'lum bo'lgan xalq og'zaki dramalari orasidagi yagona she'riy dramadir. Maishiy mavzuda yaratilgan ushbu asar haj-

man qisqagina bo'lsa-da, katta mazmunga ega. Bu dramani o'z davrida xalq qiziqdari turli harakatlar yordamida mohirlik bilan ijro etganligi va xalqning olqishiga sazovor bo'lganligi shubhasizdir:

### *Er va xotun*

**Xotun:**

*Maning bir erim bor jonidan to'yg'on,*

*Jonidan to'yibon jabrona qo'yg'on.*

*Jabrona qo'yibon oldizga kelgan.*

**Qozi:**

*Qani?..*

**Xotun:**

*Mana o'zi.*

**Qozi:**

*Qo'ydingmi, ahmoq?*

**Er:**

*Taqsir, qo'ymas edim, chochlari paxmoq.*

**Xotun:**

*Qatiq keltirmadi, taqsir, yuvmadim,  
Taroq keltirmadi taray olmadim.*

**Er:**

*Qatiq olib bersam, yalab qo'yibdir,  
Taroq olib bersam, qalab qo'yubdir.*

**Xotun:**

*Taqsir, tumov edim, yalab qo'yuvdim,  
Xo'rdam qaynamovdi, qalab qo'yuvdim.*

**Er:**

*Taqsir, olib keldim bir bog' yantoqni,  
Xudoy olsun bunday chochi paxmoqni.*

**Xotun:**

*Man ham chiqmas edim, soqoli paxmoq,  
Qatiq keltirmagan o'zlari ahmoq.*

**Qozi:**

*Bor ket, sani qo'ydi, ering olmaydir,  
Bu xil er-xotinchilik bo'lmaydir.*

G'ulom Zafariy XIX asr Qo'qon adabiy muhiti shoirlari hayoti va ijodini juda yaxshi bilgan. Onasining hikoyalari orqali, noyob kitoblar bilan tanishligi va Farg'ona vodiysidagi ilmiy izlanishlari tufayli u bu davr ijodkorlari haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ayniqsa, Uvaysiy va Nodira haqida to'plagan ma'lumotlari bu shoirlar hayoti va ijodini o'rganishda bugungi kunda ham juda katta ahamiyat kasb etadi. Taniqli olim To'xtasin Jalolov "O'zbek shoirlari" kitobida G'ulom Zafariy unga amir Umarxon davridagi shoirlar haqida anchagina ma'lumotlar berganligini yozadi va G'ulom Zafariy aytib bergan Uvaysiyning qanday qilib Umarxon saroyiga kirib borganligi va saroy shoirlari orasida shuhrat topganligi hamda Nodiraning qay yo'sinda Umarxonga manzur bo'lganligi to'g'risidagi lirik hikoyalarni keltirib o'tadi. To'g'risi, G'ulom Zafariyning xalq

og'zaki ijodi sohasidagi xizmatlari ham, shubhasiz, madaniyatimiz tarixida munosib o'rni bor. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalari-ning to'planib, nashr etilishi va xalqimizning ma'naviy mulkiga aylanishida, ularning izsiz yo'qolib ketishdan asrab qolinishida G'ulom Zafariy va uning maslakdoshlarining hissaları beqiyosdir.

Xullas, G'ulom Zafariy shoir va olim sifatida madaniyatimiz tarixida chuqur iz qoldirgan yorqin siymolardan biridir. Uning she'r va dostonlari, ilmiy asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.



# HIKMATLI SO‘ZLARI



Kengdir bu maydon, chiq g'ayrat ila!

\* \* \*

Quvvatimiz bo'lgan askarlarga jon-u dil ila boqib, qalbimizni unga tavajjuh etaylik, aslo unutmaylik, och, suvsiz tursak ham, boshqa bir narsaga qaramasdan, qahramon askarimiz tushunaylik. Zero, bu jamiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir, buning ila buyuk bo'ladir... buning ila ajdodi a'zamimiz bo'lgan fotihlarning, qahramonlarning ruhini shod etaylik, moziyimizni xotira keltirib istiqbolimizni tayin etaylik!

\* \* \*

Tug'ildi hurriyat kuni, biz endi olg'a  
boramiz.

\* \* \*

O'zbek musiqasi umumsharq musiqasi ila bab-barobardir, keng o'rin olg'on musiqadir. O'zbekda eskidan beri ma'lum musiq bo'lgan.

\* \* \*

Sharq cholg'usining cholg'u taniydaganlari shundoq usta yasabiladilarkim, bir kecha-kunduzni o'n ikkiga bo'lib, har bir bo'limni tabiat o'zgarishiga qarab bir ta'sir ostida hisoblab va shunga to'g'irlab biror kuy yasaydilar.

\* \* \*

Turkistonda ham har bir kuyni cholmoq uchun, o'qimoq uchun vaqt va kiyim belgilanadur. Misol, "Dugoh" va "Navo" erta bilan chalinur, "Bayot" tush vaqtida, "Chorgoh" kech chog'ida, "Segoh" kecha avvalinda, "Shahnoz", "Gulyor" tun o'rtasida, "Nasrulloyi" kecha oxirida chalinur...

\* \* \*

O'zbeklarda teatr qadimdan mavjud bo'lib, faqat u "hozirgicha teatru deb atalmay, "tomosha" deb atalib, elning qiziq, o'yinchilari tomonidan sayillarda, to'ylarda, gaplarda va katta yig'inlarda ko'proq ermak (tanqid) yo'li



ila, ba'zan o'rnak bo'ladigan tomoshalar tarzida qo'yilib, kitob holida yozilgan bo'lmay, o'yinchilar tomonidan tuzilib, yodaki saqlangan. Shu tomoshalar o'zbeklarning ilgarigi taraqqiysiga ko'p yordam bergan.

\* \* \*

Ilgarilari qiziq va o'yinchilarga el va xonlar tomonidan yaxshi qaralib kelgan, keyingi choqlarda o'yinchilar zo'r mone'lar orqasida el ko'zidan tushayozgan bo'lsalar ham, elning o'yinchilarga zo'r rag'bati orqasida shu choqqacha qiziqalar debgina saqlanib keldi. Shu qiziqalarni el o'yinchisi (aktyori), o'yinchilarini el tomoshasi — teatri deyilsa bo'ladi. Negakim, shul choqdagi qiziqalarning o'yinlari ilgarigi elning qiziq va o'yinchilari tomonidan tuzilib qoldirilg'on tomoshalardir. Bularning el tomoshasi ekaniga tayanch qidirib ovora bo'lmasdan qiziqalarning o'yinlarin bir yo'l ko'rish kifoya qilur.

# E'TIROF

\* \* \*

G'ulom Zafariyda ko'broq yozuvchilari-mizda topilmag'on yangi xususiyat bor. G'ulom milliy kuylarimizni yaxshi biladir...

Opera (musiqali drama) go'zal san'atlardan musiqa bilan adabiyotni sahnada birlashtirgani uchun tomosha asarlari orasida muhim o'rin tutadir. Ovro'pa go'zal san'atlar dunyosi operag'a juda katta ahamiyat beradir. Bizda operachilik yo'lida otilg'an birinchi odim G'ulom Zafariyning "Halima" sidir.

**Abdurauf Fitrat**

\* \* \*

"Halima" ko'p qo'yilishida hamma pyesalardan ortiq turadi. O'zining yoqimli kuylari bilan xalqni qanchalik maftun qilgan bo'lsa, shuhrati bilan ham G'ulom Zafariyga rus matbuotida "o'zbek bastakori" (kompozitori) nomini berdirdi...



Klassik maqomlar orasida ko‘pchilik ichiga eng ko‘p yoyilgani, shubhasiz, “Iroq” kuyidir. Uni Buxoroning shashmaqomchi hofizlari ko‘p aytar edilar. To‘ychi aka va uning jo‘ralari ham uni boshqacha qilib ishlab, omma orasiga yoydilar. U sahnamizda, eng avval, “Halima” vositasi bilan jarangladi.

### **Abdulhamid Cho‘lpon**

\* \* \*

Zafariy o‘rtoqning sahna olamiga va, umuman, san‘at va adabiyot dunyosiga ixlosi buyuk bo‘lganlikdan yaxshigina tajribalar va samaralik xizmatlar ko‘rsatdi... Bu kunda o‘zbek operasining asosini solguvchi G‘ulom Zafariydir.

**B.A. Pestovskiy,**  
*rus teatrshunosi*

\* \* \*

G‘ulom Zafariy musiqa haqida u juda ko‘p narsalarni biladi, eng asosiysi, ixtiyorida

juda nodir kitoblar bo'lib, shularning orasida musiqa haqida yozilganlari ham bor.

**V.A. Uspenskiy,**  
*rus bastakori*

\* \* \*

“Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”ni tuzishda o‘zimga noma‘lum bo‘lgan u yoki bu o‘zbekcha so‘zning ma‘nosini anglashda men ko‘pincha G‘ulom Zafariy va Abdulla Alaviylarning beg‘araz yordamidan foydalandim.

**K. Yudaxin,**  
*rus tilshunosi*

\* \* \*

G‘ulom Zafariyning “Erk bolalari” pyesaning sodda dramaturgiyasi, unga jalb etilgan yoqimli va o‘ynoqi o‘zbek kuylari Ovro‘po tomoshabinida san‘atimizga qiziqish uyg‘otdi...

“Halima” xalqning teatrga mehr-muhabbatining ramzi, Halima roli esa o‘zbek aktrissalarining sevimli roli bo‘lib qolgan. Ma‘suma

Qoriyeva, Tursunoy Saidazimova, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirovalar ilk bora shu obraz orqali elga tanilganlar. Ne'mat rolini ijro etgan Abror Hidoyatovning mahorati esa alohida tahsinga sazovordir.

“Halima” musiqali dramasi yangi musiqa, kuylar bilan boyitilib, birinchi marta nota asosida o‘zbek milliy va simfonik orkestri qo‘shiluvida ko‘rsatilgan.

**Mamajon Rahmonov**

\* \* \*

Mashhur san'atshunos Baxta o‘zbek milliy raqslarini, xususan, “Katta o‘yin”ni yozib olish jarayonida G‘ulom Zafariydan maslahat olgan. Zafariy unga raqs atamalari, harakatlar, usullar haqida ko‘p tushuntirish bergan.

**Muhsin Qodirov**

\* \* \*

G'ulom Zafariy gavdali, lo'ppidan kelgan,  
oq cho'tir yuzli odam bo'lgan.

**Hamid Sulaymon**

\* \* \*

O'tgan asrning boshlarida yangi o'zbek adabiyoti degan fenomenning yuzaga kelgani muhim voqea edi. Agar murakkab tarixiy davrda yashagan ijodkorlar she'riyat, nasr va dramaturgiya turlaridagi asarlari bilan yangi tarixiy davrning erk va hurriyat g'oyalarini fidoyilik bilan targ'ib va tashviq qilmaganlarida, mudroq xalq uyg'onmagan, milliy adabiyotimiz esa yangi uslub va janrlar bilan boyimagan bo'lardi. Shuning uchun ham shu davr adabiyotining beshigini tebratgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Hamza singari ijodkorlar qatorida G'ulom Zafariy nomini ham hurmat bilan tilga olish lozim.

**Naim Karimov**

\* \* \*

Cho'lponning ham, G'ulom Zafariyning ham adabiy faoliyatlari o'ninchi yillar o'rtalarida boshlangani yaxshi ma'lum... Har ikki musannifning o'sha davrda shuhrat topgan ilk pyesalari janr talablariga ko'ra ancha pishiq va e'tiborliki, ulargacha mualliflar muayyan adabiy-ijtimoiy bosqichni o'tamagan bo'lishlari mumkin emas.

**Shuhrat Rizayev**

\* \* \*

Tarixiy davr adabiyoti, san'ati namoyandalari haqida gap ketganda, so'zsiz, shoir, dramaturg, rejissor, pedagog, musiqashunos va, zamondoshlari ta'rifi bilan aytganda, kompozitor G'ulom Zafariy ko'pchilikning ko'z oldiga keladi. Sababi, u hozirgi kunda Milliy uyg'onish davri deb atalayotgan XX asr boshida bo'y ko'rsatgan siymolar kabi bir necha sohaning



yukini tortdi, milliy taraqqiyot mafkurasini tarannum etdi. Uning "Halima" operasi milliy teatr tarixida hodisa bo'ldi va o'zbek teatr san'atida mutlaqo yangi janr — musiqali drama janrini boshlab berdi; u bolalar dramaturgiyasiga ham asos soldi.

**Sirojiddin Ahmad**

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zafariy G'. Asarlar (So'zboshi muallifi va nashrga tayyorlovchi: Sirojiddin Ahmad). — Toshkent: Info Capital Group, 2018.
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. — Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2008.
3. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. — Toshkent: Fan, 1968.
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. — Toshkent: Sharq, 1997.
5. Said, Ziyo. Tanlangan asarlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
6. Usmonov O. G'ulom Zafariy (Hayot va ijod yo'li). — Toshkent: Muharrir, 2020.
7. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
8. Cho'lpon. Adabiyot nadir (Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho'lpon haqida xotiralar). — Toshkent: Cho'lpon, 1994.
9. Qodirov M. O'zbek muzikali dramasi. — Toshkent: O'zbekiston, 1971.
10. Qosimov B. Maslakdoshlar (Behbudiy, Ajziy, Fitrat). — Toshkent: Sharq, 1994.

## MUNDARIJA

Adib hayoti.....	4
Faoliyati va ijodi.....	15
Hikmatli so'zlari.....	141
E'tirof.....	145
Foydalanilgan adabiyotlar.....	153

*Ilmiy-ommabop nashr*

**G'ULOM  
ZAFARIY**

*Muharrir* Saidmurod Xolbekov  
*Badiiy muharrir* Muhammadxon Yusupov  
*Texnik muharrir* Dilmurod Jalilov  
*Sahifalovchi* Axtam Ro'zimurotov  
*Musahhih* Nigora G'aniyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{32}$ . AcademyUz garniturası.  
Ofset bosma. 4,5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.  
Adadi 23 000 nusxa. 06-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida .

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

"HILOL NASHR" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



YOSHLAR ISHLARI  
AGENTLIGI



UZBEKISTON  
YOSHLAR  
ITTIFOQI

**RAHM ETING MAZLUMLARA  
HAQ VA HAQIQAT NOMINA,  
CHUNKI, CHORLAR HAQ SIZI  
BIR KUNDA O'Z DEVONINA...**

G'ULOM  
*Zaxariy*

ISBN: 978-9943-6682-6-3



9 789943 668263